

FUQAROLARNING

# SAYLOV HUQUQI

VA KAFOLATLARI

5<sub>s</sub>



MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT



«MILLIY TIKLANISH»  
DEMOKRATIK  
PARTIYASINING IJTIMOIY-  
SIYOSIY GAZETASI

1995-yil 10-iyundan chiqqan boshlagan www.mt.uz / milliytiklanish2022@gmail.uz

tiklanish



№ 17 (1205)  
2023-yil 7-iyun,  
chorshanba  
Adda - 8657

**O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI SAYLOVIGA**

**32 KUN  
QOLDI**

**2<sub>s</sub>**

JAZONI O'TAB BO'LGAN  
AYRIM SHAXSLAR ENDI  
«SUDLANMAGAN»  
HISOBLANADI

## TARIXIY TASHRIF: HAMKORLIKNING YANGI BOSQIHI

Ikki davlat rahbarlari uchrashuvi natijalari shundan dalolat bermoqdaki, O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi hamkorlikni butunlay yangi bosqichga olib chiqish, har ikki davlat tashqi ishlar vazirliklarining maslahatlashuvlarini muntazam yo'lga qo'yish, milliy parlamentlar o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish hamda mudofaa yo'malishidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha muhim kelishuvlarga erishilgan.



### JARIMAGA TORTISH BILAN VAZIYATNI O'ZGARTIRIB BO'LMAYDIMI?

Joriy yil boshidan buyon O'zbekistonning Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 70 foizga oshdi. "Ko'hna qit'a"ning yetakchi kompaniyalari ishtirokida mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori texnologik tarmoqlaridagi investitsiya loyihalari portfeli esa 20 milliard yevrolik chegaradan o'tdi. Gumanitar sohada Parijdagi Luvr va Berlindagi Yangi muzey bilan hamkorlikda ikkita noyob loyiha amalga oshirildi. Ushbu san'at markazlarida ilk bor mintaqamizning boy madaniy-tarixiy merosi namoyish etildi. Markaziy Osiyoning turizm salohiyatidan faol foydalanish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mintaqa uchun barqaror turizmni rivojlantirishga ko'maklashish dasturini birgalikda ishlab chiqish va uni oktyabr oyida O'zbekistonda o'tadigan Jahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining yubiley sammitida taqdim etishni taklif qildi.

Davomi 3-betda

BIZNING MULOQOT

4

JARAYON

7

## QACHON UYG'ONASIZ, MUDRAYOTGAN MUTASADDILAR?



O'ZBEKISTON SUVEREN MAMLAKAT VA BIZ GEOSIYOSIY, AYNIQSA, BOSHQA DAVLATLARDAGI HARBIIY VAZIYATGA QARAB QONUNCHILIGIMIZNI MOSLASHTIRADIGAN, BOSHQALAR UCHUN QULAY QONUNLAR QABUL QILADIGAN DAVLAT EMASMIZ.



1898 8010-7114

# TARIXIY TASHRIF: HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI



Ikki davlat rahbarlari uchrashuvi natijalari shundan dalolat bermoqdaki, O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi hamkorlikni butunlay yangi bosqichga olib chiqish, har ikki davlat tashqi ishlar vazirliklarining maslahatlashuvlarini muntazam yo'lga qo'yish, milliy parlamentlar o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish hamda mudofaa yo'nalishidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha muhim kelishuvlarga erishilgan.

Samarqand shahridagi Kongress markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning muzokaralari bo'lib o'tdi. Unda siyosiy muloqot va madaniy-gumanitar almashinuvni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Uchrashuv avvalida Qatar Amiri Davlatimiz rahbariga Qatarga tashrif bilan kelish taklifi hamda Qatar delegatsiyasiga ko'rsatilayotgan iliq va samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi. Diplomatik munosabatlar tarixida birinchisi bo'lgan ushbu oliy darajadagi

tashrif ikki tomonlama hamkorlikda yangi bosqichni boshlab berishi hamda uni keng qamrovli sheriklik darajasiga ko'tarishga xizmat qilishi qayd etildi. – Biz Qatarni nafaqat Yaqin Sharq mintaqasida, balki butun arab-musulmon olamida o'zimizning istiqbolli hamkorimiz sifatida bilamiz. Siz bilan so'nggi yillardagi muloqotlarimiz bois munosabatlarimizda katta siljish kuzatilmogda, – dedi Davlatimiz rahbari. Joriy yilda Toshkent shahrida Qatar elchixonasi ochilgani ikki tomonlama hamkorlikni faol ilgari surishda muhim o'rin tutgani ta'kidlandi. Qatar tomoni Dohada O'zbekiston elchixonasi ochilishi ushbu jarayonga kuchli sur'at bag'ishlashiga ishonch bildirdi.

Tomonlar o'zaro savdo ko'rsatkichlarini oshirish, qo'shma investitsiya loyihalari va savdo shartnomalarini amalga oshirishga tayyor ekanliklarini ta'kidladilar. Qatarning yetakchi kompaniyalari energetika, gaz-kimyoo sanoati, qishloq xo'jaligi, infratuzilma, logistika, turizm va boshqa tarmoqlarda umumiy qiymati 12 milliard dollardan ziyod yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etishi yuzasidan kelishuvga erishildi. Istiqbolli loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida shu yil sentyabr oyida O'zbekiston-Qatar investitsiya forumini o'tkazish hamda qo'shma loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish masalasini ko'rib chiqish

taklif etildi. Davlat rahbarlari Markaziy Osiyoni Ko'rfaz mamlakatlari bilan bog'laydigan eng qisqa, ishonchli va xavfsiz yo'laklarni shakllantirish muhimligini qayd etdilar. O'zbekiston Prezidenti va Qatar Amiri o'rtasidagi muloqotlar chog'ida madaniyat, ta'lim va turizm sohalaridagi almashinuvlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, birgalikda madaniyat kunlari, konsert dasturlari, ko'rgazmalar, hunarmandchilik va pazandachilik namoyishlarini o'tkazishga kelishib olindi. Mamlakatlarimiz poytaxtlari o'rtasida yo'lga qo'yilishi rejalashtirilayotgan muntazam aviaqatnovlar ishbilarmonlik aloqalari va o'zaro sayyohlar

oqimining ortishiga xizmat qilishi ta'kidlandi. Global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. Tomonlar Afg'onistonga nisbatan pragmatik siyosat yuritilishi, mamlakat iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlash va afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatilishi muhimligini ta'kidladilar. Shu ma'noda, Transafg'on temir yo'lini barpo etish bo'yicha strategik loyihani amalga oshirishni birgalikda ilgari surish istiqbollari ko'rib chiqildi. Uchrashuv so'ngida shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy Davlatimiz rahbarini Qatarga tashrif bilan kelishga taklif qildi. Muzokaralar konstruktiv, ochiq va ishonchli ruhda o'tdi.

O'ZA

Jarayon

## OLIY MAJLIS VA BUNDESTAG O'RTASIDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI ALOQA O'RNATILADI

Germaniya Federal hukumatining Ko'chib kelganlar va milliy ozchilik masalasi bo'yicha vakili, Bundestag deputati Natali Pavlik boshchiligidagi delegatsiya mamlakatimizda bo'lib turibdi.

Mehmonlar bugun kunning ikkinchi yarmida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida o'tkazilgan uchrashuvda ishtirok etishdi.

Quyí palataning Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi raisi Dilorom Fayziyeva Germaniya O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi hududidagi muhim sherigi ekani, har ikki tomon turli sohalar, jumladan, parlamentlar doirasida o'zaro manfaatli va konstruktiv hamkorlikni davom ettirish manfaatlarini ta'kidladi.

Muloqot chog'ida parlamentlararo muloqotni kengaytirish tomonlarga

bir-birini tushunish, o'zaro ishonchni mustahkamlash, munosabatlarining huquqiy bazasini takomillashtirishga xizmat qilishi tasdiqlandi.

O'zbekistonda mamlakatni siyosiy modernizatsiya qilish, parlamentarizmni rivojlantirish va qonun chiqaruvchi hokimiyat rolini kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida batafsil ma'lumot berildi.

O'z navbatida N.Pavlik ham mamlakatlarimiz o'rtasida o'rnatilgan sheriklik va konstruktiv aloqani yuqori baholadi. Prezident rahbarligida tadbirkorlar, kichik va o'rta biznes vakillari huquqini himoya qilish tizimini mustahkamlash, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilayotganini e'tirof etdi.

Shuningdek, O'zbekiston bilan barcha sohada,

jumladan, Yevropa Ittifoqi va boshqa institutlar bilan hamkorlik asnosida manfaatli hamkorlik davom etishi, mustahkamlanishiga umid bildirdi.

Uchrashuv yakunida har ikki tomon zamonaviy dunyoda parlament diplomatiyasi roli va ahamiyati tobora ortib borayotganiga urg'u berib, Oliy Majlis va Bundestag parlamentarlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatishga qiziqish bildirdi.

Germaniya tomonining parlament faoliyati bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, mahalliy parlamentarizm darajasida va ijro etuvchi hokimiyat idoralari faoliyati ustidan samarali parlament nazoratini amalga oshirishda har tomonlama ko'maklashishga tayyorligi ma'lum qilindi.

O'ZA

## JAZONI O'TAB BO'LGAN AYRIM SHAXSLAR ENDI «SUDLANMAGAN» HISOBLANADI



Odiljon TOJIYEV,  
Oliy Majlis  
Qonunchilik palatasi  
Spikeri o'rinbosari

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yalpi yig'ilishida biz – deputatlar bilib-bilmay jinoyatga qo'l urib qo'ygan bolalarning kelajagiga «bolta urib» kelayotgan «sudlanganlik» tamg'asini olib tashlashga xizmat qiladigan qonun loyihasini ko'rib chiqdik.

Ushbu qonun loyihasi bilan Jinoyat kodeksiga quyidagi mazmundagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi taklif etilmoqda:

Birinchidan, 18 yoshga to'lmagan shaxslar sodir etgan jinoyati (o'ta og'ir jinoyatlar bundan mustasno) uchun jazoni o'tab bo'lganidan keyin «sudlanmagan» deb hisoblanadi.

Ikkinchidan, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosining eng kam muddati bir oyga tushiriladi (amalda ushbu muddat 6 oyni tashkil qiladi).

# JARIMAGA TORTISH BILAN VAZIYATNI O'ZGARTIRIB BO'LMAYDIMI?

Boshlanishi I-betda

Ushbu dastur mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilishdan tortib, tarixiy meros obyektlarini rekonstruksiya qilish bo'yicha aniq loyihalarni, aviaqatnovlar geografiyasini kengaytirish va sonini ko'paytirish, butun mintaqaga uchun mo'ljallangan yagona turizm mahsulotlari va yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda viza tartibotlarini soddalashtirishgacha bo'lgan masalalarini qamrab oladi.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida dastlab O'zbekiston rahbarining Cho'lponota shahrida o'tkazilgan «Markaziy Osiyo va Yevropa ittifoqi» yetakchilarining ikkinchi uchrashuvidagi ishtiroki tafsilotlari xususida Markaziy kengash raisi Alisher Qodirovning fikrlari eshitildi.

O'zbekistonning Yevropa davlatlari bilan yaqin hamkorligi, shubhasiz, yurftimizning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi, — dedi fraksiya rahbari.

Yig'ilishda, shuningdek, Davlatimiz rahbarining Rejep Tayyip Erdog'ning inauguratsiya marosimidagi ishtiroki haqida ham fikr-mulohazalar bildirildi.

Marosimda ishtirok etgan 81 ta davlat vakillari va 20 davlatning rahbarlari ichida O'zbekiston yetakchisiga birinchilardan bo'lib bildirilgan minnatdorlik yana bir marta mamlakatimizning turkiy dunyoda o'z o'rnini va o'z borligidan darak beradi, — dedi A.Qodirov.

Shundan so'ng deputatlar O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslardan davlat bojini undirish hamda ularni soliqqa tortish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risidagi qonun loyihasini muhokama qildilar.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda zamonaviy milliy estrada san'atini yanada rivojlantirish, estrada ijrochilarining professional mahoratini oshirish hamda iqtidorli yosh xonandalarni kashf etish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi. Ammo tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan konsert-tomosha faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, madaniy-ommaviy tadbirlarni o'tkazish, badiiy jihatdan yuksak musiqa asarlarini yaratish sohasidagi ishlar hanuz talab darajasiga ko'tarilmayapti.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Prezidentining 2022-yil 13-iyuldagi «Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslardan davlat bojini

undirish hamda ularni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi va uning ijrosini ta'minlash maqsadida ushbu qonun loyihasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, Soliq kodeksi hamda «Davlat boji to'g'risida»gi qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, konsert-tomosha faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiruvchi xonandalarga 2024-yil 1-yanvargacha qadar, boshqa ijodkorlarga esa 2026-yil 1-yanvargacha qadar qat'iy belgilangan miqdordagi soliq yoki deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash huquqi berilmoqda.

Ya'ni, endi xonandalari 2024-yilning 1-yanvariga qadar, boshqa jismoniy shaxs — ijrochilar esa 2026-yil 1-yanvargacha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini bir yilda bir marta to'laydilar. Konsert-tomosha faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiruvchi III reyting guruhiga ega jismoniy shaxslar esa 2024-yil 1-yanvargacha qat'iy belgilangan miqdordagi soliq to'lashdan ozod etiladi. 2025-yil 1-yanvargacha qadar bo'lgan davrda mehnat shartnomasi asosida band bo'lmagan konsert-tomosha faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar ijtimoiy soliqni bir yilda bir marta BHMning 1 baravari miqdorida to'laydilar.

Shuningdek, nogironligi bo'lgan, yoshga doir pensiya olish huquqiga ega shaxslar, ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar, yuridik shaxs tashkil etgan ijodiy jamoalar konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi.

Deputat Nodirbek Tilavoldiyev bu o'zgarishlarning budget tushumiga ta'siri masalasini ko'tardi.

«Aksariyat xorijiy davlatlarda, jumladan, qo'shnilarimizda ham bunday xizmatlar uchun undiriladigan majburiy to'lovlar yuqori. Lekin ushbu soliq turining bizda pasaytirilayotgani qanchalik to'g'ri? Masalan, I reyting guruhi ijrochilaridan bir yilda 2,7 mln. so'm miqdorida daromad solig'ini undirish belgilanyapti. Axir ba'zi san'atkorlarimizning bu mablag'ni 1 soatda ham topishi barchaga ma'lum-ku, — dedi deputat.

Madaniyat va turizm vaziri vakili ushbu savolga javob qaytarar ekan, shu paytgacha san'atkorlar uchun bunday soliqlar belgilanmagani, bu bosqichmabosqich oshirib borilishini ta'kidladi.

Fraksiya rahbari Alisher Qodirov ham N.Tilavoldiyev



fikrini qo'llab-quvvatlab, bunday imtiyozlar san'atni rivojlantirishga xizmat qilmayotganini, hatto atoqli yozuvchi-shoirlarimiz xalqimiz ma'naviyatiga xizmat qiluvchi kitoblarini chop etishga mablag' topolmayotgan bir sharoitda ularga soliq to'lashda imtiyozlar berilmay, xonandalarga shunday qulayliklar yaratishimiz to'g'ri emasligini ta'kidladi.

— Madaniyat va turizm vazirligi bu haqda jiddiy o'yab ko'rishi lozim. To'g'ri, Prezident qarori ijrosini ta'minlash kerak, lekin bu qarorni qabul qilishdan asosiy maqsad san'atimizni rivojlantirish edi. Afsuski, ayrim xonandalarning g'arbga taqldi oqibatida san'atimizga putur etyapti. Biz ushbu qonun loyihasi orqali shunday xonandalarni qo'llab-quvvatlamayapmizmi? — dedi A.Qodirov.

Qonun tashabbuskorlari ham deputatlar tomonidan ko'tarilgan masalalar to'g'ri ekanini, lekin ushbu qonun loyihasi bilan san'atkorlarga imtiyozlar berilmayotgani, aksincha, yangi majburiy to'lovlar joriy qilinayotganini ta'kidladilar. Ularning fikricha, san'atkorlar 2020-yilgacha hech qanday soliq to'lashmagan. Ya'ni, 20 yil davomida bir marta soliq to'lamagan san'atkorlarimizga nisbatan endi majburiy to'lovlar joriy qilinmoqda. Hozir 15 ming nafar san'atkorlarimiz bo'lsa, 2026-yilga borib ularning barchasini litsenziya olishga tortsak, bu bilan 15 mingta ish o'rnini yaratiladi. Bu esa ushbu deklaratsiya orqali 15 ming odam

soliq to'laydigan bo'ladi, deganidir. Qizg'in muhokamalardan so'ng ushbu qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilindi.

«O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasi ham deputatlar tomonidan qizg'in muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, iste'molchilar va intellektual mulk huquqini himoya qilish, aholi sog'lig'ini saqlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilayotganiga qaramay, inson sog'lig'i va hayotiga xavfli bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish, realizatsiya qilish holatlari ko'payib boryapti. Oqibatda fuqarolarning turli darajadagi zaharlanish hamda o'limi bilan bog'liq holatlar yuz beryapti.

Jumladan, keyingi 3 yilda inson sog'lig'i va hayoti uchun xavfli bo'lgan mahsulotlarni muomalaga kiritish bilan bog'liq 191 ta holat aniqlangan bo'lib, 2022-yilda bu holat 2020-yilga nisbatan 55,8 foizga oshgan. Huquqbuzarlardan 86 tn. spirt, 304,4 ming dona alkogol, 28 tn. go'sht, 39,2 ming kg o'simlik yog'i, 195,5 ming dona konserva mahsulotlari olingan. Aniqlangan holatlarning 44 foizi yashirin holatdagi ishlab chiqarishlar bilan bog'liqdir.

Iste'molga yaroqsiz mahsulotlarning sotilishi oqibatida zaharlanish va o'lim holatlarining oshib borayotganini esa hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Birgina o'tgan 3 yilda alkogoldan

zaharlanish 2020-yilga nisbatan 20,6 foizga, o'lim holati esa 16 foizga oshgan.

Bu esa javobgarlik choralarini yanada kuchaytirish zaruratini keltirib chiqaryapti va shundan kelib chiqib, amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, iste'molchilar hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlarni sotish maqsadida ishlab chiqarish, saqlash yoxud tashish BHMning 200 baravarigacha miqdorda jarima yoki 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 1 yildan 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Agar bu harakatlar juda ko'p miqdorda, bir guruh shaxslar tomonidan yoki takroran sodir etilsa, BHM 400 baravarigacha miqdorda jarima yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Bunday harakatlar odamlar o'limiga sabab bo'lsa, 7 yildan 12 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bir so'z bilan aytganda endi etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarganlik uchun ma'muriy preyuditsiya bekor qilinib, to'g'ridan - to'g'ri jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi belgilanyapti. Shuningdek, tadbirkorning tovar brendidan noqonuniy foydalanib mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish — 15 mln. so'mgacha jarima (amalda 9 mln.), sanitariya qonunchiligini buzish — 6 mln. so'mgacha (amalda 3 mln.), veterinariya qonunchiligini buzganlik uchun esa 1,5 mln. so'mgacha (amalda 600 ming) jarima belgilanyapti.

Deputat Sherzod To'xtashev ushbu o'zgarishlarga munosabat bildirib, qonun loyihasining juda muhimligini, chunki inson sog'ligi, hayotiga xavf solishi mumkin bo'lgan har qanday mahsulotlar nazoratini kuchaytirish, bu boradagi qonunchilik talablarini buzganlarga nisbatan jazo muqarrar bo'lishi lozimligini ta'kidladi va fraksiya a'zolarini loyihamo qo'llab-quvvatlashga chaqirdi.

Ayrim deputatlar esa taklif qilinayotgan jazo choralarini hamon zaifligini, bunday shaxslarni ma'lum miqdorda jarimaga tortish yoki litsenziyasini bekor qilish bilan muammo hal bo'lmasligini, aksincha, ularni uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish lozimligini va ikkinchi o'qish jarayonida bu masalaga alohida e'tibor qaratilishini ta'kidladilar.

# QACHON UYG'ONASIZ, MUDRAYOTGAN MUTASADDILAR?

«Ayollar qanoti» tashabbusi bilan tashkil etilgan navbatdagi tadbir – «O'zbekistonda xotin-qizlar va yoshlar huquqlari davlat himoyasida» mavzusidagi ochiq muloqot ayrimlar kutganidek hisobot uchungina o'tmadi... Ayniqsa, mamlakatda huquqbuzarlik va jinoyatchilik ko'rsatkichining tobora «yosharib» borayotgani, aksariyat hollarda oilalardagi nosog'lom muhit, ota-onalar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar, oilada otaning o'rni yo'qolib borayotgani bilan bog'liq xulosalar «Ayollar qanoti» vakillarining fikricha, tadbir ishtirokchilarini «uyg'otib» yubordi. Tadbirda dastlab yangilangan Konstitutsiyaning «Oila, bolalar va yoshlar» bobiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarga munosabat bildirilib, bundan buyon nafaqat ona va bola, balki otalar huquqi va manfaatlari ham davlat himoyasida ekaniga alohida urg'u berildi. Muloqotda 2017-yildan buyon «Ayollar va Yoshlar qanoti» xodimlari hamda deputatlik guruhi tomonidan respublika o'g'il bolalar va qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasalarida nazorat-tahlil tarzida olib borilgan o'rganishlar xulosasi ko'pchilik e'tiborini tortganini aytish joiz.



– Prezidentimizning 2019-yil 29-maydagi «Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishida partiyamizning ham munosib hissasi bor. Mazkur qarorga muvofiq, bir qator muammolar o'z yechimini topdi. Lekin afsuski, qo'limiz yetmayotgan ko'plab muammolar borki, bugungi davra suhbatini ularni atroficha muhokama qilib, yechim topishga xizmat qiladi, degan umiddamiz, – dedi partiya Markaziy kengashi raisi o'rinbosari Feruza Muhammedjanova.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, olib borilgan o'rganishlar jarayonida ko'plab xato va kamchiliklar aniqlandi. Xususan, Sirdaryo viloyatining Baxt shahridagi o'g'il bolalar hamda Toshkent viloyatining Chinoz tumanida joylashgan Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasalarining binosi bugungi kun talablariga javob bermaydi. O'g'il bolalar maxsus-maktabi joylashgan yerlarda sho'rlanish darajasi kuchli. 2022-yilning aprel oyida qiz bolalar muassasasida o'tkazilgan nazorat-tahlil o'rganishlari jarayonida maktabning sport zalidan qizlar yotoqxonasi sifatida foydalanilayotgani aniqlangan edi. O'shanda muassasa rahbari maktab 15 kun ichida yangi binoga ko'chirilishini aytgandi. Afsuski, qizlar hamon eski binoda ta'lim-tarbiya olishyapti. Tarbiya fani kitobi esa o'quvchi tugul, hatto o'qituvchining o'zida ham yo'q. Valohanki, mazkur maktablarda bu fanning ikki hissa ko'proq o'qitilishiga ehtiyoj bor. Bundan tashqari, muassasalar-hovlisida tarbiyalanuvchilarni ezgulikka, bilim olishga chorlaydigan, odob-xalq qoidalarini targ'ib qiladigan birorta ham vosita ko'rmadik. O'g'il bolalar maktabida 3 donagina milliy musiqa cholg'ulari mavjud xolos. Ularning ham birortasi foydalanishga yaroqli emas. Masalan, doira yetmish yillik tog'oradek teshik, rubob esa qachon qadrdon simlaridan ayrilganini bilmay yotibdi... Eng achinarlisi, sog'lom avlodni

tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida kun tartibiga tobora chuqurroq kiritilayotgan bir paytda o'quv-tarbiya maskani sport inventarlari bilan ta'minlanmagan. Masalan, voleybol, basketbol, qo'l to'pi, futbol to'plari qog'ozda bor... Muassasalar binosi ta'mirlanib, sinfxonalari qorong'u, yo'laklar, yotoqxonalar esa zax. Binoning isitish tizimi, elektr energiyasi ta'minoti bilan bog'liq muammolar haligacha hal qilinmagan. Kuzatuv kameralari nosog'... Eng yomoni esa tarbiyalanuvchilar ta'minoti ularning yoshiga mos emas. Yana bir muammo: Bu yerda psixologlar (har 20 nafar bolaga bir nafar psixolog) va geografiya fani o'qituvchisiga ehtiyoj bor.

Aytaversangiz gap ham, muammo ham ko'p. Ammo ularni bartaraf etadigan mutasaddining o'zi yo'q...

Mana nima uchun «Ayollar qanoti» tashabbusi bilan tashkil etilgan tadbir his-tuyg'ularni uyg'otdi... Tadbirda so'zga chiqqanlar tomonidan bolalar jinoyatchiligining oldini olish, bilib-bilmay nobop ko'chalarga kirib qolgan o'smirlarni qayta tarbiyalash, ularni jamiyatga moslashtirishga oid aniq taklif va tavsiyalar bildirildi.

**O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro**

**etish departamentining voyaga yetmagan mahkumlarga ixtisoslashtirilgan koloniyasi boshlig'i Shoira Odilova:**

– Men faoliyat olib borayotgan koloniyada 14-18 yoshli bolalar va o'smirlar tarbiyalanishadi. Ular bu yerga turli sabablar bilan kelib qolishgan. Ko'pchiligi o'g'rilik, bosqinchilik, hatto talonchilik sodir etganlar. Achinarlisi, ularning orasida og'ir jinoyatlar sodir etgan yoshlar ham bor. Mahkumlardan jinoyatga qo'l urishlarining sababi so'ralganda, ko'plari internetda o'rgandim, deyishadi. Suhbat asnosida ularning aksariyati notinch va to'liqsiz oila farzandlari ekanini oydinlashadi. Shuning uchun ham jinoyatchilikning o'q ildizi oiladagi nosog'lom muhitga borib taqaladi degan xulosa bor. Ota-onalar nazoratsiz qolgan bu kabi yoshlarning turli oqimlar, yet g'oyalari ta'siriga tushib qolishlari, missionerlar tuzog'iga osongina ilinishlari ham hech gap emas. Bu esa nafaqat o'sha oila, balki jamiyatning ham fojiasidir...

**Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasi direktori O'rozboq Usmonov:**

– Baxt shahrida joylashgan o'g'il bolalar maxsus maktabiga 2019-yildan buyon rahbarlik qilaman. Tarbiyalanuvchilar

orasida maktabda muttasil dars qoldirgani uchun bu yerga yuborilgan bolalar ham bor. Nazarimda, bu toifa o'quvchilarni mazkur muassasaga yuborishdan avval ular bilan ota-onalar, profilaktika inspektorlari, mahalla faollari, psixologlar, tajribali o'qituvchilar ish olib borsalar maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki bu yerdagi ayrim tarbiyasi og'ir bolalar ularga salbiy ta'sir o'tkazishlari mumkin. Xalqimizda «Bolani bola desang bola, balo desang balo bo'ladi», degan naql bor axir.

**Nodira Isroilova, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi mutaxassisi, falsafa fanlari nomzodi:**

– Markazimiz Respublika o'g'il bolalar va qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasalari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Meni tarbiyalanuvchilar bilan bog'liq bir muammo ko'p o'ylantiradi: tarbiyalanuvchilar 18 yoshga to'lishi bilan oq (tug'ilgan kuni o'quv yilining qaysi sanasiga to'g'ri kelishidan qat'i nazar) muassasadan chiqarib yuboriladi. Natijada ularning o'qishi chala qoladi, attestat ham ololmay qoladilar. Taklifim, qonunchilikka o'zgartirish kiritish, ya'ni o'quvchilar umumiy ta'limni to'liq tugatmagunlaricha, 18 yoshga to'lgan bo'lsa ham muassasada yashab turishlariga ruxsat berish kerak.

Yana bir gap: ayni paytda o'quv tarbiya muassasalarini yopish masalasi ko'tarilmog'ida. Mazkur muassasalarda bolalar ijtimoiy, tibbiy, huquqiy, ruhiy jihatdan reabilitatsiya qilinadi. Muassasalar yopilsa, bu vazifalarni kim, qay bir tashkilot o'z zimmasiga oladi?!

**Feruza Jumayeva - Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasasi (5-sonli Chinoz tumani ixtisoslashtirilgan qiz bolalar uchun yopiq turdagi maktab-internat) rahbari:**

– Maktab-internatimizdan chiqib ketgan ayrim qizlar yana qaytib o'zimizga kelishadi. Buning sabablari ko'p. Hatto ayrimlarning ota-onalari bo'lsa-da, ulardan mehr ko'rishmaydi.

«Ustoz, nega siz bizni ehishtasiz,

kezi kelganda maslahatlaringizni ayamaysizu, onamiz bizni eshitmaydi, orzularimiz, taqdirimiz bilan qiziqmaydi, o'zlari bilan o'zlari ovora?! Uymizda har kuni janjal, to'polon...», deyishadi. Ana shundan keyin oilasidagi nosog'lom muhit va mehrsizlikdan bezib, yana uydan qochib ketishadi. Ayrimlari bu yerga qaytishadi. Shu o'rinda maktabimizdan chiqib ketgan qizlarning keyingi taqdiriga kim mas'ul, degan savol hamon ochiq qolayotganini ham aytish kerak.

**Matlyuba Qahhorova, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar kafedrası professori:**

– Davra suhbatı ishtirokchilarining fikrlarini eshitib, bolalar jinoyatchiligining ortib borishining asosiy sababi oilalarda otalarning o'rni yo'qolib borayotganida, degan fikrga kelдим. Achinarlisi, ayrim ayollarimiz ota faqat ta'minotchigina emas, u oilaning ustuni, rahbari ekanini farzandlariga anglatish o'rniga, uning obro'-e'tiborini tushirib yuborishyapti. Farzandlari ko'z o'ngida turmush o'rtog'iga hurmatsizlik qilyapti. Bu bilan esa eng katta xatoga yo'l qo'yishyapti: erkakning g'ururini sindirishyapti. Oqibatda qadriyatlarimiz toptalgan ana shunday oilalarda farzandlar jinoyatga qo'l uryapti.

Shu o'rinda bir taklifim bor: hurmatli inonmlarimiz oilada otaning o'rnini mustahkamlashga, ularning burchi va mas'uliyatlarini anglatishga oid chiqishlarini ko'paytirishlari kerak.

**Xurshida Safarova, xalq deputatlari Mirzo Ulug'bek tuman Kengashi deputati:**

– Xabaringiz bor, YUNISEF qarori bilan Samarqand va Qo'qondagi 11-13 yoshli o'g'il-qizlar tarbiyalanadigan maxsus-maktablar faoliyati to'xtatildi. Ayni paytda shu yoshdagi tarbiyasi og'ir bolalarni qayta tarbiyalaydigan muassasa mavjud emas. Chinoz va Baxtdagi o'quv-tarbiya muassasalariga esa 14 yoshdan qabul qilinadi. Muammo shundaki, 11-13 yoshli tarbiyasi og'ir bolalar ham borki, ularni hatto ota-onalari ham eplay olmay, o'zlari bizzga murojaat qilishyapti.

Taklifim: mavjud o'g'il bolalar va qiz bolalar maktablariga 11-13 yoshlilarni ham qabul qilishni yo'lga qo'yish kerak...

Shubha yo'qki, yuqoridagi mulohazalar «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi faollarining tarbiya va ma'naviy hayot haqidagi chiqishlarini ochiq-oydin mazax qilayotgan ayrim chalasavodlar ko'zini ochgan bo'lishi kerak. Tarbiya chindan ham «yo hayot, yo mamot» deyiladigan darajaga yetdi. G'arbda tez-tez tilga olinayotgan bir ibora bor: bu «Boy berilgan avlod» iborasidir. To'g'ri, bizda hali quyosh ham, suv ham, hatto tarbiya ham o'z ildizidan to'la uzilgan yo'q. Ammo ayrim ma'lumotlar yoshlar tarbiyasidagi yo'qotishlar ta'lim tizimida yaqqol ko'zga tashlanayotganini anglatmoqda...

Ko'plab mutaxassislar, ekspertlar ishtirok etgan ana shunday dolzarb tadbir yakunida yosh avlod tarbiyasiga mas'ul bo'lgan mutasaddi tashkilotlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi birgalikda kurashishni kuchaytirish lozim degan xulosaga kelindi.

**Feruza JALILOVA,**  
partiya Markaziy kengashi  
bo'lim boshlig'i

## FUQAROLARNING SAYLOV HUQUQI VA KAFOLATLARI

Saylovlar – fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlovchi siyosiy huquqi sanaladi. Bejiz, saylov huquqi sohasidagi tamoyillar va standartlar 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida aks etmagan. Qolaversa, hozirda erkin saylov tashkil qilinishi va o'tkazilishini ta'minlash sohasida 20 dan ortiq universal va mintaqaviy xalqaro shartnomalar amal qiladi. Umuman olganda, demokratik saylovlar fuqarolik va siyosiy huquqlarning tantanasi sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, ushbu Deklaratsiyada xalq irodasi hukumat vakolatining asosi bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Ya'ni, inson huquqlari va demokratiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, saylovlar demokratiyaning markazida bo'ladi.

**F**uqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktda ham saylov jarayoni xalq siyosiy irodasining ifodasi ekanligi va saylov jarayonlarida turli g'oyalarni ifoda etish hamda ilgari surish huquqi qat'iy himoya qilinishi kerakligi belgilangan. Aniqroq qilib aytganda, saylovchilarning so'z va fikr erkinligi huquqlarining ta'minlanishi orqali ularga to'liq va aniq ma'lumot olish imkoni yaratiladi.

Shu kunlarda xalq taqdirini hal etuvchi muhim siyosiy jarayon – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi oldi dunyo hamjamiyati e'tibori O'zbekistonga qaratilgan. Qayd etish lozimki, Konstitutsiyamizning 128-moddasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi", deb belgilangan. Fuqarolarning bu huquqini to'la ro'yogba chiqarish uchun so'nggi yillarda saylovga oid qonunchilikni xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada xorijda vaqtincha yashab turgan mehnat muhojirlari, talabalar va boshqa yurtdoshlarimiz saylovda ishtirok etishi uchun keng sharoitlar yaratildi. Ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarga ovoz berish imkoniyati yaratildi. Aytish joizki, ushbu normalar ba'zi demokratik davlatlar qonunchiligida ham mavjud emas.

Xalqaro ekspertlar saylash huquqiga ega bo'lgan va harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalarda saqlanayotgan shaxslarni qo'riqtilishi mumkinligi nuqtayi nazaridan juda zaif elektorat segmenti deb hisoblaydi. Shuning uchun ham Ombudsman penitensiar muassasalarga monitoring tashriflarini amalga oshirganda saylovchilarning hech qanday tazyiq va moneliksiz

yashirin ovoz berish huquqlari ta'minlanishi nuqtai nazaridan saylov uchastkasining belgilangan talablarga muvofiq jihozlanganini o'rgandi. Shuningdek, saylovchilarning tanlash, nomzodlarning esa teng targ'ibot qilish huquqlari ta'minlanishi maqsadida monitoring jarayonida nomzodlarga, ularning ishonchli vakillariga, siyosiy partiyalarga fuqarolar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali saylovoldi tashviqoti uchun teng sharoitlar yaratilishi kabi holatlar ham diqqat e'tiborimizda bo'ladi. Belgilangan tartibga ko'ra, saylash huquqiga ega mahkumlar qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchastkalaridagi saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi. Saylovchilarning ro'yxatlari esa mazkur muassasalar rahbarlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida uchastka saylov komissiyasi tomonidan tuziladi va saylovchilar yagona elektron ro'yxatiga kiritiladi. Agarda harakatlanish erkinligi cheklangan muassasalarda mahkumning saylash huquqi bo'la turib unda ishtirok etishiga to'sinlik qilish holatlari bo'yicha murojaatlar kelib tushsa, ular darhol joyiga chiqib o'rganiladi. Saylov kuni qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarining ma'muriyati mahkumlarning saylov uchastkasiga kirib chiqishi va xavfsizligini ta'minlashi, shuningdek, ichki tartib-qoidalariga rioya etishi uchun mas'ul hisoblanadi. Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan uchastka saylov komissiyalari mazkur muassasalarning ma'muriyati bilan birgalikda saylovchilarni saylov to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, saylovga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish jarayonlari, saylov o'tkazish vaqti va tartibi hamda nomzodlar haqida xabarot qilib boradi. Shuningdek, nomzodlarga, ularning ishonchli vakillariga, siyosiy partiyalarga fuqarolar bilan

uchrashuvlar o'tkazish orqali saylovoldi tashviqoti uchun teng sharoitlar yaratib berilishi lozim. Shundagina mahkumlar nomzodlar tomonidan ko'tarilayotgan tashabbuslar asosida ularning birini tanlaydi va saylash huquqidan foydalanadi. Saylov kodeksining 7-moddasida yashirin ovoz berish saylovchining xohish-irodasi ustidan har qanday tarzda nazorat qilish imkoniyatini istisno etadigan tegishli sharoitlarni yaratish orqali ta'minlanishi belgilangan. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksida O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolarining, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning huquq va erkinliklar tengligi kafolatlangan. Shuningdek, O'zbekiston BMning «Nogironlar huquqlari to'g'risida»gi konvensiyani ratifikatsiya qilgan bo'lib, uning 29-moddasida ishtirokchi davlatlar nogironlarning siyosiy huquqlarini va boshqalar bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini kafolatlashi va nogironlar boshqalar bilan teng ravishda siyosiy va ijtimoiy hayotda bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali samarali va har taraflama ishtirok etishlari, shu jumladan, saylash va saylanish huquqlari va imkoniyatlariga ega bo'lishlarini, jumladan, ovoz berish tartiblari, binolari va materiallari anglash va foydalanish uchun mos va oson bo'lishini ta'minlash majburiyatlarini olishi belgilangan. Nogironligi bo'lgan shaxslar saylovlarda ishtirok etish orqali nafaqat o'z siyosiy huquqlaridan foydalanadilar, balki bu orqali o'zlarini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladilar. Taraqqiy etgan demokratik huquqiy davlatlarda saylovlarning adolatlari o'tishi har bir saylovchining ovoz berish jarayonida ishtirok etishini ta'minlash borasida yaratilgan shart-sharoitlarning saylovchi-fuqarolar uchun qulayligi,

kengligi hamda huquqiy asosga ega ekanini bilan belgilanadi. O'zbekiston milliy saylov qonunchiligida ham barcha saylovchilarga ovoz berish jarayonida to'sqinliksiz ishtirok etishini ta'minlash borasida muhim qoidalar belgilangan. Ulardan biri saylovchilarning muddatidan oldin ovoz berish huquqi institutidir. Qayd etish lozimki, saylovlarda muddatidan oldin ovoz berish tartibi ilg'or xorijiy davlatlarda, xususan, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Finlandiya, Norvegiya, Polsha, Ruminiya va boshqa ko'plab davlatlarda mavjud. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 57-moddasiga muvofiq, saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchi muddatidan oldin ovoz berish huquqiga egadir. Muddatidan oldin ovoz berish saylovga o'n kun qolganida boshlanadi va saylovga uch kun qolganida tugallanadi. Saylovda O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi konsullik ro'yxatida turgan yoki turmaganidan qat'i nazar xorijda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarimiz uchun o'sha davlatlarda tashkil etilgan saylov uchastkasida ovoz berish imkoniyati yaratiladi. Xulosa o'rinda aytish mumkin, ushbu saylov jarayonlarida fuqarolarning saylash huquqini ta'minlash, ularga belgilangan tartib-taomillar asosida sharoitlar yaratish va saylovni ochiq, adolatlari va, albatta, teng saylov huquqi asosida o'tkazilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu jarayonlar O'zbekistonning xalqaro nufuzi va imidjiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Fuqarolar ham saylash huquqini amalga oshirishlari uchun davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlardan unumli foydalanib, mamlakat kelajagiga befarq bo'lmasligi lozim. Saylovlarda o'z ovozingiz bilan ishtirok eting. Zero, bu Sizing Bosh Qomusimizda aks etgan siyosiy huquqingizdir.



**Feruza ESHMATOVA,**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining  
Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)

## ELTUZZAR



«BBC»da ishlaydigan kursdoshimiz Rustam Qobilning Toshkentga kelgani munosabati bilan to'rt-besh kursdosh yig'ildik. Hammaning gap xaltasi ochildi. Yoshlikni, ustozlarni esladik. Domla Boybo'ta Do'stqorayev haqida maqola yozayotganimni aytgan edim, taniqli telejurnalist Amrullo Beshimov «Ustoz bir kuni tahririyatga keldi», – deya gap boshlab qoldi. – «Ukajon, mana bu materiallarni sizga ilindim. Ilm qilsangiz...» deya bir papka tutqazdi. Shungayam o'ttiz yil bo'пти. Ilm yo'lidan ketmadik. Lekin ustozning hurmati papkani hozirgacha saqlayman...»

O'sha sirli papkani tezroq ko'rish ilinjida hamkasbim Oybek Yunusov va Rustam Qobil bilan xayr-ma'zur qilib, «Anadolu» axborot agentligi muxbiri Baxtiyor Abdurkarimning avtoulodida «Krestik» tomon jo'nadik. Vaqt allamahall bo'lishiga qaramasdan yo'llarda mashina ko'p.

Mediamarkazga kiraverish qorong'i ekan. Yo'l-yo'lakay kimlargadir sim qoqib kalit izlagan Amrullo aka biroz vaqtdan so'ng, tomoq qirdi va qo'limga bir dasta qog'oz tutqazdi. Domla Boybo'ta Do'stqorayevning «meros»ini oliboq, «Yandex taxi» chaqirdim...

Uyga kelasolib «Mushtum» jurnalining 1923 – 1930-yillar sonlaridan «To'yboboning sovg'asi» to'plami uchun ko'chirilgan materiallarni varaqlay boshladim. 1993-yilda mashinkalangan to'plam Abdulla Qodiriy, G'ozzi Yunus, A'zam Ayyub, Iskandar Ikromov, Sadridin Ayniy, Hoji Muin, Abdulla Qahhor, Nazir To'raqulov, To'xtamurod A'zamov, Nosir Said, Ziyov Said, Hojiolim Qobiliy, zangiotalik Azlarxo'jayev va bizga noma'lum «Jartiboy oqsoqol», «Sarqit», «Astag'firullo Maxsum», «Zuvayda Dallob», «Temir tirnoq», «Shabrang», «Takasaltang», «Jambilbek» kabi o'nlab ijodkorlarning maqola, she'r, hikoya, hajviya va feletonlaridan tuzilgan ekan.

O'h-ho'-o'! Andishasiz, shartaki, betgachopar, tili zahar, murosasiz bo'lib ko'ringan ajdodlarimiz merosi xayollarimni alg'ov-dalg'ov qilib yubordi. Mualliflardan faqat Qodiriyning yozganlari tanish, xolos. Ko'ngilga kelgan har xil ishtibohlardan uyqum qochdi. «To'plam chop qilinsa, yuz yil burungi hayot haqidagi tasavvurimiz hiyla boyigan bo'larmidi...» degan o'y miyamga yopishib qolganay...

Domla jahon adabiyotshunosligi yutuqlari asosida yangi «Adabiyot nazariyasi»ning yaratilishini orzu qilib o'tdi. «Tanqidchilar, adabiyot nazariyotchilari mayda, ahamiyatsiz tadqiqotlar bilan emas, adabiyotimizning magistral yo'lini belgilashga xizmat qiladigan yirik-yirik jiddiy tanbehdir. Shunday deb yozayman-u, qulog'im tagida ustozning o'ziga xos mayin, shirali ovozda «To'g'rimasmio-yo'qmi?» degan tanish so'rovi jaranglaganday bo'ldi...

Boybo'ta Do'stqorayev jamiyat yangilikka, yangilanishga muhtoj bo'lgan, asl milliy-ruhiy chashmalarni izlagan davrda zo'r berib ijod qildi. Matbuotdagi chiqishlaridan birida «Mumtoz adabiyot tadqiqotchisi ona tilimizni yaxshi bilish bilan birga, fors va arab tillarini ham o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Aks holda, qadam sayin «qoqilaveradi», deb ta'kidlagan edi. Boybo'ta aka uchinchi kursda o'qiyotganida ayrim kursdoshlari jurnalistika guruhiga o'tib ketgani haqida gapirib, «Men ham o'tsammikan deb o'ylaganman. Ammo fikrimdan qaytdim. Axir, o'zingiz o'ylang-a, Ozod Sharafiddinov, G'ulom Karimov, Laziz Qayumov, Subutoy Dolimov, Ayyub G'ulomov, Shavkat Rahmatullayev, Umarali Normatov, Mera Saksonova kabi atoqli, mohir ustozlarning darslarini kimning ko'zi qiyardi», degan edi.

Domla har-har zamon saboqdosh og'alari – Shukur Xolmirzayev, Abdulla Oripov, Begali Qosimov, Mahmud Sa'diyga havasmand bo'lgani, taassub qilgani haqida gapirib qoldi. So'ng, ko'r mahalliychilik azobini xo'b totganini, uzoq yillar o'qituvchi lavozimiga loyiq ko'rilmay, laborant bo'lib ishlagan davrlarini esladim.

Domla jiddiy ko'ringani bilan juda dilkash inson edi.

Ba'zi-ba'zida Baxtiyor Nazarov, Saydi Umurov, Akbar Nurmatov, Amrullo Karimov ko'rishib, gurung qilardik. Gapimiz o'z-o'zidan adabiyot, san'at, tarixga burilardi. Soqol qo'rganidan so'ng Hemingueyga kelbat berib qolgan Baxtiyor aka qandaydir bir hangomani eslab qolsa bas, Saydi aka odatdagidek qiyqirib kular, Boybo'ta domla esa faqat davra eshitadigan tarzda «ho'-ho'»lab qo'yardi. So'ng asta jilmayib, biror bir qiziq mavzudan gap ochardi. Davradoshlar ko'ngliga tegmaydigan, ammo tagdor qochirim va hazillar qilishni yaxshi ko'rardi. Gurung qamrovi kengligidan milliy adabiyotimizning istalgan davri, jadidlar hayoti, tilshunoslik, adabiy tanqid, xalq og'zaki ijodi xususidagi kuzatishlarida albatta tesha tegmagan bir fikr, o'ziga xos bir topilma bo'lardi.

Ustoz mustaqillik yillarida ochilib ijod qildi, olim sifatida tanildi. Bir umrlik orzusi – ma'rifatparvarlar merosini jamlab chop etish, milliy matbuot tarixini o'rgatish orqali jadidlar mafkurasini ko'rsatib berish istiqloq davrida ro'yobga chiqdi. Hurlik zamonida ta'asis etilgan bayramlardan biri Boybo'ta Do'stqorayev izlanishlari mahsuli desak, xato qilmagan bo'larmiz.

O'zbekiston istiqloqla erishgandan keyin ham matbuot kuni sifatida salkam bir asrlik

an'ana – 5 may («Pravda» gazetasi tashkil topgan sana) bayram qilinar edi. Milliy matbuot tarixi o'rganila boshlagach, turli takliflar o'rta tashlandi. Ayrimlar «Turkiston viloyatining gazetasi» chiqqan sanani (1870-yil 10-may) nishonlash kerak desa, ba'zilar «Ishtirokiy» gazetasi chop etilgan kun (1918-yil 21-iyun) bayram qilishga munosib derdi. Munozara avj olgan bir vaqtda, «Xalq so'zi» gazetasi 1993-yil 11-iyun sonida Tohir Pidayev, Boybo'ta Do'stqorayevning «Taraqiy» gazetasi tashkil topgan sana o'zbek milliy matbuoti kuni deb e'lon qilindi. Uning birinchi soni 1906-yilning 14-iyunida chop etilgan sarlavhali salmoqli maqolasi bosilib chiqadi. Ushbu bosh maqolada «Turkiston viloyatining gazetasi» general-gubernatorlikning nashr affkori bo'lgani, chor Rusiyasining mustabidlik siyosatini o'tkazishga xizmat qilgani, «Ishtirokiy» gazetasi esa o'lka bolsheviklari minbari bo'lganini yoddan chiqarmasligimiz uqtirilgan. Mualliflar «Taraqiy» butun o'zbek millatining jaholatdan qutulishi, taraqqiy topishi, milliy ongining o'sishi, erk va istiqloq uchun kurashda muhim o'rin tutgani, bu maslak keyinchalik jadidlar g'oyasi, harakat esa jadicilik deb atalganini inkor etib bo'lmas dalillar bilan isbotlab bergan. Maqolada ilgari surilgan

«O'zbek milliy matbuot kuni deb «Taraqqiy» gazetasi chiqqan sanani olish kerak. U 1906-yil 14-iyun, yangi hisob bilan 27-iyungacha to'g'ri keladi» degan taklif asosida Birinchi Prezident Islom Karimov 1993-yil 24-iyun kuni «O'zbekiston Respublikasi matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi farmonga imzo chekadi. Unga muvofiq, 27-iyun Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni etib belgilanadi.

B.Do'stqorayev milliy matbuotimizning to'ng'ichi bo'lgan gazetaning yuz yilligi munosabati bilan e'lon qilgan «Taraqqiy» boshlab bergan yo'l» maqolasida ushbu nashr mustabidlik davrida millatdoshlarimizning milliy ozodlik yo'liga kirishdek jasorat sari qay tarzda qadam tashlaganliklarini ko'rsatuvchi yorqin dalil ekanini aytadi va o'tgan yuz yillikka xayolan nazar soladi. Xuddi mana shu o'rinda olimning o'ziga xos mahorati namoyon bo'ladi. Ya'ni, kosa tagida nimkosa qilib, «Taraqqiy» gazetasi bahona xalqimizning yuz yil burungi ahvoli, ijtimoiy-ma'naviy hayoti, «Turkiston viloyatining gazetasi» muharriri Ostroumov kabi tullaklarning Rusiya saltanatining mohiyatini, milliy zulm, mustabidlik nima ekanini, ozodlik naqadar buyuk ne'matligini anglatishga harakat qilgan gazetaga nisbatan tuhmat uyushtirgani, bo'hton tegirmoniga suv quygan johillar, buzg'unchi, xiyonatkorlar qay tarzda g'olib kelganini taassuf bilan bayon etadi.

YUNESKO 1993-yilni «Yassaviy yili» deb e'lon qilgan pallada Boybo'ta muallim Xoja Ahmad Yassaviy ma'naviy-ruhiy olamini o'rganishga ishtiroqchilardan uchun qimmatli sovg'a tayyorlaydi. Tariqat piri, shayxul mashoyixning hali muxlisu mutaxassislariga noma'lum bo'lgan ayrim hikmatlarini, o'zbek tilida yozilgan ilk tadqiqotlar – Abdurahmon Sa'diy va Abdurauf Fitrat maqolalarini jamlab, kattagina so'zboshi bitib, «Yassaviy kim edi» nomi ostida nashr ettiradi. So'zboshining o'zi bir tadqiqot. Boybo'ta domla munaqqid Abdurahmon Sa'diy ham, taniqli sharqshunos olim Abdurauf Fitrat ham Yassaviy ta'limotining mohiyatiga kirib borolmaganini ochiq yozadi. Jumladan, Sa'diy Yassaviy mansub bo'lgan tasavvuf oqimi haqida lom-mim demagani. Fitrat esa Yassaviyning mutasavvif sifatidagi ta'limotini yetarli baholay olmagani, «Mautu qabla an tamutu», ya'ni «O'lishdan avval o'linglar» iborasini jo'n, yuzaki tushuntirganiga e'tibor qaratadi.

Boybo'ta akaning o'n uch yil burun bitilgan «Alpomish» matnining jilolari» nomli maqolasi bor («O'zAS», 2011-yil, 1-son). Muxtasar maqola mohiyat e'tibori bilan bir risolaga teng. Maqola avtobiografik chizgilar bilan boshlanadi. Yetmish yoshni qoralagan muallim bolaligini shunday eslaydi: «XX asr 40-yillari oxirida, ayrim qishloqlarga hali radio kirib bormagan paytlarda uzoq qish chekchalar qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar yig'ilar, ovozi yoqimli bir kishi dostonlarni o'qir, boshqalar zavqqa to'lib tinglar edi. Shunday davrlarning bir chetida kamina ham bo'lardi. Endi olti-yetti yoshga kirib, badiiy so'zning sehrini chala-chulpa anglay boshlagan vaqtlarimda dostonlarda tasvirlangan voqealarni bolalikning cheklangan xayolot doirasida o'zimcha tasavvur etar, hodisalarni o'z qishlog'im sarhadlaridan uzoq bo'lmagan makondagina bo'lyapti, deb o'ylardim. Shu tariqa, xalq og'zaki ijodi, xususan, dostonlar hali jo'n tarzda bo'lsa-da, badiiy tafakkurimning shakllanishida o'ziga xos zamin bo'lgan, deya olaman. Bu tuyg'u haligacha meni tark etgan emas...»

Domla bolalikni eslash asnosida adabiyot ibtidosi folklor, xalq og'zaki ijodi ekanini uqtirgan, dostonlarni, xususan, «Alpomish»ni qanday tahlil etish lozimligini ko'rsatib bergan edi.

Boybo'ta aka chekkagir olimlardan farqli ravishda matnning «ichi»ga kirib tahlil qilardi. Matn ham pok niyatli, mashaqqatni rohatga aylantira oladigan muallimni mahram bilib, «ko'zdan pan» fazilatlarini o'chardi. Matn

va so'z olamida yashagan ustoz o'sha olamdan turib siz bilan gaplashar, gurning, albatta, o'sha tilsimli dunyo sarhadlariga ko'char edi. Ilgari eshitmagan, uchratmagan so'zga duch kelsa, Fitrat domla kabi turkiy ildiz bilan bog'langan-bog'lanmaganini aniqlashga ishqiboz edi. Bir gal «Gerbimizdagi arabcha Humoning turkiycha nomiga qachondir duch kelaman deb yurardim. Yaqinda uni topdim. Ajdodlarimiz Humoni Quvolg'u deb atagan ekan...» degan edi xazina topganday quvonib. «Quvolg'u» so'ziga qay yo'sinda duch kelgani haqida kattagina maqola ham yozgan edi.

1997-yilda B. Do'stqorayev tomonidan tayyorlangan Cho'lponning «Go'zal Turkiston» nomli to'plami bosilib chiqadi. Zahmatkash munaqqid to'plamga so'zboshi va izoh bitib, shoirning 90-yillar atrofida e'lon qilingan kitoblari o'tib ketgan talay matnii xatolarni tuzatdi. Eng muhimi, muxlisu mutaxassislarni birday qiziqtiradigan masala – Cho'lpon o'zbek she'riyatiga qanday yangi badiiy xususiyatlar olib kirdi degan savolga atroficha javob berdi.

Professor Bahodir Karimov 2004-yil Cho'lpon haqidagi ayrim maqola va taqrizlarni to'plab, «Cho'lpon va tanqid» nomi bilan nashr ettiradi. Boybo'ta domla yosh adabiyotshunos tuzgan risolaning muhimligini e'tirof etib, to'plovchi e'tibor qaratmagan, asar mazmunini anchagina o'zgartirib yuboradigan ba'zi xatolarni ko'rsatib o'tadi. Shu bilan birga, kitobxonlar ongiga singdirilayotgan yangilish tasavvur – 20-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, Cho'lpon ta'na-malomatlar, dashnomlar, dag'dag'alar, po'pisalar eshitaverib yuragi zada bo'lgan, unga hech kim muruvvat ko'rsatmagan, hamma yuz o'g'irgan, dunyoga kelib ro'shnolik ko'rmay o'tib ketgan, degan qarashlarga oydinlik kiritish lozimligini ta'kidlaydi.

B.Do'stqorayevning «Vannaychaxonning dardi yoki cho'lponshunoslikdagi ayrim muammolar xususida» nomli maqolasi («O'zAS», 2009-yil 45-son) shoir ijodini o'rganishga bag'ishlangan jiddiy tadqiqotlardan biri. Munaqqid ko'pchilikni qiziqtiradigan ikkita muhim savolga javob izlagan: Cho'lpon she'rlari badiiy mahorat nuqtayi nazaridan bir il emasligining boisi nimada? Cho'lponning ayrim she'rlari haqida hali-hamon turli-tuman taxmin, farazlar mavjudligining sababi ne?

Boybo'ta aka talabalarga matbuot tarixidan ma'ruza o'qish, jadid pedagogikasi va mafkurasi haqida maqola yozish, baytu g'azal sharhi bilan cheklanib qolgan emas. Domlaning Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov, Tilak Jo'ra, olimlardan Ochil Tog'ayev, Ozod Sharafiddinov, Vohid Abdullayev, Saydi Umurov, Shavkat Karimov haqidagi maqolalari ziyoli o'laroq ma'naviy hayot, adabiy-ilmii jarayonning sinchkov kuzatuvchisi bo'lganini isbotlaydi.

Hamma ishi jo'yali va batartib, yuksak ichki madaniyat sohibi bo'lgan Boybo'ta aka qo'liga nima tushsa – dissertatsiya yo avtoreferat bo'ladimi, gazeta yo jurnalni – mag'zi to'q, bexato bo'lishini istardi. Yaxshi ko'rib kuzatadigan nashrlari hafsalasini pir qilsa, «It dumini chaynagandek o'zini takrorlayapti...» der edi o'ziga xos norozi ohangda. Domlaning haqli e'tirozlari bugun ham dolzarb masala sifatida kun tartibida turibdi.

Tuyaqorinday tadqiqotlar urchiyotgan, chin ustozlar merosi tufayli yildan-yilga yuksalib, ustozlik da'vo qilayotgan kalondimog'lar maydalashayotgan zamonda foydali ilm yo'lida sobitqadam bo'lish qahramonlik, aslida.



**Olim TOSHBOYEV,**  
filologiya fanlari  
nomzodi.  
O'zbekistonda xizmat  
ko'rsatgan jurnalist



## «TOSHINGIZNI TERING, JANOBI MIRONOV» degandek gap bo'ldi!

«Spravedlivaya Rossiya» partiyasi yetakchisi Sergey Mironovning Qozog'iston va Qirg'iziston bilan birga O'zbekistonning ham o'z fuqarolarini Rossiya tomonidan o'tkazilayotgan «maxsus harbiy operatsiyada» ishtiroki uchun jinoiy javobgarlik belgilangani bir tashkilot (YEON) doirasidagi hamkor mamlakatlar uchun qanchalik to'g'ri bo'ladi degan fikriga o'zbek siyosatshunosi «Yuksalish» umummilliy harakati raisi Bobur Bekmurodov keskin munosabat bildirdi.

– Bizningcha, Mironov bu masalaga salbiy munosabat bildirgandan ko'ra, o'z qonunchiligi bilan shug'ullangani ma'qul, – dedi B. Bekmurodov. – Chunki, avvalo, Rossiya Federatsiyasining o'zida yollanganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Xususan, RF Jinoyat kodeksining 359-moddasida yollanish uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan. Va, unda harbiy nizoda ishtirok etayotgan davlatning fuqarosi bo'lmagan va bu davlat hududida doimiy yashamaydigan shaxsning moddiy manfaatdorlik yo'lida harakat qilishi yollanish deb qabul qilinishi belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekistonning tashqi siyosati boshqalar bilan birga kuch ishlatmaslik

yoki kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipiga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 154-moddasida o'zga davlat hududida yoki uning tarafini olib, qurolli to'qnashuvda yoxud harbiy harakatlarda qatnashish uchun yollanganlik uchun jinoiy javobgarlikka tegishli norma 1994-yilda qabul qilingan.

O'zbekiston fuqarosining chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o'xshash boshqa organlariga xizmatga kirganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi 154-modda esa 2003-yilda kiritilgan. O'zbekiston suveren mamlakat va biz geosiyosiy va, ayniqsa, boshqa davlatlardagi harbiy vaziyatga qarab qonunchiligimizni moslashtiradigan, boshqalar uchun qulay qonunlar qabul qiladigan davlat emasmiz. Shuningdek, O'zbekiston boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.

P.S.: Janob Mironovning YEONga a'zo emasligimizni bilmashligi haqida gapirmadik, deb o'z fikrini tugallaydi muallif o'zining @bbekmurodov sahifasida.



Fransuzlarning yuqoridagi tajribasi ayni ana shu jarayonlarda chalg'ishimiz, biroz bo'lsada badiiy zavq olishimizga yordam beradi, menimcha.

# TARJIMON XATOSI EGANI KESIMGA



**T**arjimon bir asarni ikkinchi tilga o'girish jarayonida milliy urf-odat va an'analarni ham targ'ib qilishga hissa qo'shadi. Ayni paytda ushbu soha oldida turgan talay muammoli masalalar borki, ularni yechish badiiy tarjima imkoniyatlarini yanada kengaytirib, aslyatdan tarjima qilish amaliyotini rivojlantirishga turtki berishi mumkin.

Shuning uchun ham o'zbek tarjimashunosligida o'z o'rniga ega bo'lgan tarjimonlar safining kengayib borayotgani quvonarli holdir. Jumladan, A'zam Obidov, Mirzaali Akbarov, Begoyim Xolbekova, Alisher Otaboyev, Oybek Ostonov, Hilola Ro'ziyeva, Qandilat Yusupova, Shahlo Obloqulova kabi ijodkorlarning mehnati sabab o'zbek kitobxonni yangi nomlar va jahonning zamonaviy yozuvchilari asarlari bilan tanishish imkoniga ega bo'lishyapti. Tan olish kerak, bugun paydar-pay tarjima qilinib, xususiy nashrlarda chop etilayotgan ayrim xom-xatala tarjima asarlar ham yo'q emas. Bu esa badiiy tarjimaning murakkab soha ekanini, bunda xorijiy tilni yaxshi bilishning o'zi kamlik qilishini ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbari ham adabiyotimizda kechayotgan jarayonlar haqida fikr bildirganlarida: «Ayni vaqtda bu sohada ham oldimizda ko'pgina dolzarb va muhim vazifalar turganini ham qayd etish zarur. Xususan, hozirga qadar jahon adabiyotidan ona tilimizga tarjima qilingan aksariyat asarlar vosita tillar orqali amalga oshirilgan va bu hol bugungi kunda ham davom etmoqda. Yosh tarjimonlarimiz aslyat tilini yaxshi bilsalar-da, ko'p hollarda ularda badiiy mahorat yetishmayapti», deya haq gapni aytgan edilar. Mahoratli ustoz tarjimon G'aybullat Salomov esa «Bizningcha, ham to'g'ri va ham chiroyli tarjimagina mukammal va ideal san'at asari bo'la oladi, bunday tarjima yaratishning o'zi esa chinakam san'atdir. Bunday san'at tarjimondan to'g'ri tarjima qilish doirasida chiroyli tarjima etishni va shu doirada to'g'ri tarjima qilish mahoratini egallashni talab etadi», degandilar. Bir so'z bilan aytganda, badiiy tarjima ana shunday yuksak mas'uliyatli soha bo'lib, bu uchun tarjimon til borasidagi bilimlarini boyitish bilan birga sohadagi nazariy malakalarni ham egallashi shart. Aks holda ayrim tarjima asarlarida uchrayotganidek, egani kesimdan ajratolmay qolamiz.

Marjona TULAYEVA

## METROPOLITEN MUTASADDILARIGA QIZIQARLI TAKLIF

**F**ransiyada metro yoki avtobus chiptalarining orqa tomoniga ixcham hikoyalar joylanishini eshitib, ochig'i ularning topqirliklariga qoyil qolgandim. Bu yo'lovchilarning zerikmasliklari va bilim olishlarini ta'minlashini hisobga olsak, bizda ham qo'llansa bo'larkan, degan o'y kechdi xayolimdan.

Darvoqe, telefonidan ko'z uzmay, virtual olam asiriga aylanayotgan yoshu qari shu orqali biroz chalg'irmidi...

Ba'zan hayot tashvishlariga ko'milib yon-atrofga qarash, tabiatdan, odamlardan va hatto kitoblardan zavqlanishni ham unutil qo'yyapmiz. Fransuzlarning yuqoridagi tajribasi ayni ana shu jarayonlarda chalg'ishimiz, biroz bo'lsada badiiy zavq olishimizga yordam beradi, menimcha.

To'g'ri, kimdir shuncha kitob, gazeta-jurnallar turib, ularni o'qimaymizu, chiptalarni o'qirmidik deyishi mumkin.



Ammo yo'l-yo'lakay o'qilgan hikmatli iboralar ko'proq yodda qolishi va samarali ta'sir qilishi mutaxassislar tomonidan qayd etilgan.

Nima bo'lganda ham til, adabiyot targ'ibotchilari, mutasaddilar shu xususida o'ylab ko'rsalar yomon bo'lmasdi.

Mavsumjon ABDULLAYEV

## KECHIKAYOTGAN TEZ YORDAM MASHINASI

**H**ar birimiz hayotimizda bir marotaba bo'lsada tez tibbiy yordam chaqirganmiz yoki chaqirilganiga guvoh bo'lganmiz. Ba'zan jonimiz og'rigidan shu qadar vujudimiz charchaydiki, sirena ovozi bilan kirib kelgan mashinadan tushgan shifokorlar najot farishtasidek ko'rinadi ko'zimizga.

Shunda ularni bisotimizdagi eng shirin so'zlar bilan alqaymiz. Ba'zan esa o'z vaqtida kelmagan, buning ustiga dorilar qutisida zarur dori-darmonlari bo'lmagan tez tibbiy yordam xodimlarini «shirin» gaplar bilan kutib olamizki...

Xo'sh, so'nggi yillardan fuqarolarning eng ko'p e'tirozlariga sabab bo'lgan TTYO mashinalari nega o'z vaqtida yetib kelmaydi? Vaholanki, milliy qonunchiligimizda tez tibbiy yordam brigadalarining shoshilinch chaqiruvlarga (yo'l harakati, favqulodda hodisalar oqibati natijasida olingan og'ir tan jarohatlari, hushdan ketish, turli shok holatlari, o'tkir zaharlanish va boshqalar) 15 daqiqadan (yurak xuruji, astma xuruji, o'rta va yengil tan jarohatlari, qon ketishi, buyrak xurujlari, yuqori isitma va boshqalar) 40



daqiqagacha yetib kelishlari belgilangan. Soha xodimlari kechikishlar sababini avtomashinalar soniga nisbatan chaqiruvlar sonining ko'payib ketganligi bilan izohlashadi. Aksariyat hollarda yo'llar tirbandligi va boshqa haydovchilarning tez yordam mashinasiga yo'l bermasligi ham bunga sabab bo'lmoqda.

Tez tibbiy yordamning o'z vaqtida yetib kelmagan uchun kimningdir otasi-onasi, farzandi, joni-jigarlari hayoti xavf ostida qolib, jabr ko'rganlar oz emas. Qadrli haydovchilar, yo'llarda haydovchilik madaniyati va mas'uliyatini teran his etgan holda harakatlanaylik, xayrli ishlarda hamisha ilg'or bo'laylik. Tez yordam mashinasiga yo'l berishga odatlanaylik!

Nigina SALAHIDDINOVA



## «QUDA» QILIB QO'YISHI MUMKIN...

**B**ugun oliy ta'lim tizimida va talabalar hayoti'da tub burilish yasagan akademik mobillik nima? Bu dastur talaba va o'qituvchilarning mamlakat yoki xorijdagi OTMda kelishuv asosida ma'lum muddat o'qishi yoki dars berishini anglatadi. Mobil talabalarining birinchi guruhiga erkin harakatlanuvchilar kiradi. Bunday talabalar o'z xohish va tashabbuslari bilan ta'lim olish uchun boshqa hududlarga borishadi.



## OLIV TA'LIMGA YANGI PLATFORMA KERAK

Ikkinchi guruhga esa dastur doirasidagi talabalar kirib, ular OTM yoki uning biror fakulteti bilan kelishgan holda o'zaro almashinuv dasturlarini amalga oshiradilar. Dasturlar milliy va xalqaro darajada ham bo'lishi mumkin. Almashinuv dasturlari bir haftadan 3 oygacha, yoki 6 oydan bir yilgacha deb belgilanadi.

Almashinuv dasturlari orqali talabalar boshqa davlatlar madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi bilan tanishishi va ta'lim shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan almashish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Qolaversa, talabalarining almashinuv dasturlari orqali migratsiya ham amalga oshiriladi.

Talabalaridagi moliyaviy muammolar, o'zi o'qishni istagan OTM bilan fanlar orasida farqlar, chet

dasturlari bo'lsa til bilmaslik ushbu dasturda ishtirok etishni cheklashi mumkin.

Ushbu dasturdan foydalanayotgan talaba buning qulay tomonlarini o'zi istagan OTMda tahsil olish imkonida, deb bilsa, almashinuv davrining qisqaligini (6 oy) to'la o'zlashtirish uchun vaqt ozligi bilan izohlanadi. To'g'ri, birinchi muddatdan so'ng ta'lim muddati yana cho'zdirilishi mumkin. Ammo dasturlarni ikki marta olti oydan emas, birdan yillik etib belgilansa yaxshi bo'lardi.

Darvoqe, bunday dasturlar haqida bizdagi OTM saytlarida ma'lumotlar kam ekanini ham aytish joiz. Ularda shunchaki, xorijiy OTM ro'yxati berilgan, ko'proq ma'lumotga ega bo'lish uchun esa ushbu dasturdan foydalanishni

istagan talaba uchun u yerdagi o'quv jarayoni haqidagi ma'lumotlar to'laroq joylashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Shu bilan birga bu dastur amal qiluvchi OTM saytlariga OTMdagi o'quv jarayonlari, ta'lim sifati xususida ma'lumotlar joylashtirilishi lozim.

Yana bir taklif: akademik mobil dasturi asosida shartnoma tuzish va muddatini uzaytirish jarayonlarini onlayn amalga oshirish uchun alohida platforma yaratilsa, talabalar ham vaqtini, ham naqdini tejagan bo'lardi. Vaholanki, bunday platformalar xorijiy OTMda bor. Ha, yana bir gap: akademik mobillikda talabalar uchun turar joy masalalari ham qamrab olinsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi...

**Dilrabo TO'XTASINOVA**



## YAXSHI ODAMLAR...

**A**gar insofli yo'lovchi o'z yo'lda tasodifan bo'lsa ham biror toshga qoqilib yiqilsa, etagini qoqib ketavermaydi. Men yiqildim, boshqalar yiqilmasin deb, toshni chetga surib qo'yadi. Yoki yo'lda biror chuqurchani ko'rsa, darrov unga biror tayoq tiqib qo'yadiki, yo'lovchilar hushyor bo'lishsin.

Odamlar bor insonlar tashnalik azobini ko'rmasinlar, deb ko'milib qolgan buloqlarni ochadilar, ochlikdan, oftob tig'idan qiynalmasin, mevasidan bahramand bo'lsin, deya daraxt ekishadi.

Odamlar bor masjid va madrasa barpo etadi. Yo'li solib, ko'prik quradi. O'zlaridan keyingilarga oson bo'lsin deb shunday qiladilar.

Afsuski, boshqa bir toifa odamlar borki, birovg'a borlarini ham bermaydilar, yiqilganni ustidan tepkilab o'tadi, yoki to'g'ri yo'lda

yurganni oyog'idan chaladi. Yetimlar haqqini yeyishdan, birovning hasmiga ko'z tikishdan or qilishmaydi. Yana shundaylar borki, o'z manfaati, halovati, nafi uchun Vatani sotishdanda toymaydi.

Xullas, maktabdan qaytayotganimda to'kilib yotgan o'riklarni bolalardan qizg'onadigan amaki bilan, o'tgan-qaytgan kichkintoylarga gilos ulashib turuvchi amakini solishtirganim sari savollar, mulohazalar tug'ilaverardi. Nega hamma odam har xil ekan-a...

Bugun ulg'ayib, jamiyatda o'z o'rmini topishga urinayotgan talaba sifatida ham mulohazalarim, savollarim o'zgaradi? Aksincha, nega yomon odamlar ko'payib ketyapti, degan mulohaza fikrlar tarozisida tosh bosyapti. Balki tarbiya, balki atrof muhit, balki boshqa vajdan shundaydir. Nima bo'lganda ham yaxshi insonlar ko'paysin, ko'payversin.

**Sevinch YAXSHIBOYEVA**

## AVTOBUSLAR YANGILANYAPTI, BEKATLAR-CHI?



**Y**ozning jaziramasini, qishning qahratoni yoki bahorning yomg'irli kunlarida avtobus kutishdan zerikarli mashg'ulot yo'q...

Ayniqsa, oynali bekatlar nihoyatda tor bo'lib, hamma yo'lovchilar sig'maydi. Jala va yomg'irlar oqibatida teshilib, ado bo'lgan eski bekatlar esa na sovuq, na issiqdan sizni himoya qila oladi.

Bu muammo nafaqat poytaxtda, balki viloyat va tumanlarda yaqqolroq

ko'zga tashlanadi. Sir emaski, ko'pgina qishloqlarimizda odamlar hashar yo'li bilan «qo'lbola» bekatlar qurib olishgan.

Soha mutaxassislarining 850 dan ortiq bekatlar holati bo'yicha olib borgan o'rganishlari ham bekatlarning 91 foizida, ya'ni 711 tasida avtobuslarning yo'nalishi va harakatlanish jadvali mavjud emasligini ko'rsatibdi.

850 ta bekatning 62,9 foizida chiqindi uchun

qutilar, 37,2 foizida kutish zali mavjud emasligi, 36,5 foiz bekatlarda yo'lovchilar uchun o'rindiqlar ozligi, 31,6 foizi umuman talabga javob bermasligi qayd etilgan.

Bu ma'lumotlar bekatlar muammosiga jiddiy e'tibor qaratish kerakligiga ishora, aslida. Zotan, inson qadri ulug'lanayotgan Yangi O'zbekistonga eski bekatlar yarashmaydi.

**Bonu ABDUVALIYEVA**



# ISLOM Ayol va HUQUQ

Islom ta'limoti ayolga uning jinsiga, biologik tuzilishiga qarab haq-huquq berish bilan birga zimmasidagi vazifalarini ham tayin etdi. Islom ta'limoti ayolni hayotning barcha jabhalarida: ilm olish, mehnat qilish, jamiyat taraqqiyotida qatnashish va hatto mol-mulkka egalik qilishda ham erkak bilan teng huquqli deya belgilab qo'yanini ta'kidlash joiz.

**N**ihoyat. O'zbekistonda ham ayollarning jamiyatdagi o'rnini va bu jarayonning umumijtimoiy, madaniy hamda ma'naviy xususiyatlari chuqur o'rganila boshlandi. Buning sababi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xalqimiz ma'naviyati va diniy savodxonligini oshirish jarayonida islom ta'limotining ayollar masalasiga oid qoidalarni ilmiy tahlil qilish ijtimoiy zaruratga aylandi. Ikkinchidan, ayollarning oila va jamiyatdagi o'rnini oshirishda shariat ko'rsatmalarini o'rganish orqali yechim topish mumkin bo'lgan masalalarda ulardan to'g'ri foydalanish lozimligi tobora oydinlashib boryapti. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada mintaqamizda azaldan an'ana sifatida qabul qilingan islom ta'limotida belgilangan ayol huquqlarining mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy asoslarini Qur'oni karim hamda hadislarida belgilangan normalar orqali yoritishga harakat qildik. Shuningdek, maqolada ayollarning oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlari, jamiyatdagi mavqeyi, mehnat qilishga va, albatta, ijtimoiy, iqtisodiy huquqlariga oid qoidalarni tahlil etishga harakat qildik. Qayd etish joizki, ayol huquqi faqatgina yuridik holat bo'lmay, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, diniy, falsafiy va jamiyatdagi turli o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq holat hamdir. Shuning uchun ham islom huquqi normalarida ayollar masalasining umumijtimoiy jihatlari, ijtimoiy-tarixiy negizlari, madaniy va

ma'naviy xususiyatlari hamda islom ta'limotida ayollar masalasining o'ziga xosligini huquqiy nuqtai nazardan o'rganish nihoyatda muhim sanalyapti. Ma'lumki, Islom ta'limoti ayolga uning jinsiga, biologik tuzilishiga qarab haq-huquq berdi va shu bilan birga zimmasidagi vazifalarini ham tayin etdi. Islom ta'limoti ayolni hayotning barcha jabhalarida: ilm olish, mehnat qilish, jamiyat taraqqiyotida qatnashish va hatto mol-mulkka egalik qilishda ham erkak bilan teng huquqli deya belgilab qo'yanini ham ta'kidlash joiz. Shundan kelib chiqib, ayol huquqlariga doir islom huquqidagi nazariy muammolarni tahlil qilar ekanmiz, islom huquqidagi ayol huquqlariga yondashuvda o'ziga xos jihatlari mavjudligiga alohida urg'u berishni istardik. Birinchidan, islomda ayol bilan erkak tengligi haqida alohida tushuncha mavjud bo'lib, bunday yondashuvdagi o'ziga xoslik bir qator omillar bilan izohlanadi. Xususan, islom huquqida erkak va ayolning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqlarga bir xilda ega ekani e'tirof etilib, uning erkak kabi sha'ni, obro'sining muhofaza qilinishi, mehnat qilishi, shaxsiy mulkka ega bo'lishi, voris bo'lishi, meros qoldirishi, yuqori mansabni egallashi (masalan, qozi bo'lishi), sud ishlarida guvoh sifatida ishtirok etishi, saylovlarda qatnashishi (bay'at) kabi huquqlarga ega ekani tan olinadi. To'g'ri, bu huquqlar o'rtasida ba'zi tafovutlarni ham ko'rish mumkin. Buning asosiy sababi sifatida esa ayolning jismoniy imkoniyatlari hamda uning jamiyat faoliyatidagi o'rnini va ishtirokining darajasi ko'rsatiladi. Ya'ni, ayollarning ba'zi jismoniy xususiyatlari sabab ularga yengilliklar yaratilgan. Masalan, erkak kishi har qanday holatda o'z ibodatlaridan ozod qilinmasa, ayol hayz va nifos holatlarida ibodatlardan to'la ozod qilinadi. Garchi islomda ayollarning masjidga borishlari mumkinligi ta'kidlansa-da, buning ayollarga majburiy emasligi ko'rsatib o'tiladi. Zotan, Payg'ambarimiz (s.a.v.) davrlarida ayollar masjidga borganlar, biroq erkaklarninggina juma namoziga borishlari shart sanalgan. Demak, islom ayol organizmining tabiiy vazifalari bilan bog'liq fiziologik va ruhiy o'ziga xosliklarini nazarda tutib, uning zimmasidagi vazifalarini yengillashiradi. Shu bilan birga, ayollarning zaifligi bois

oilani nafaqa bilan ta'minlash majburiyati erkakka yuklatiladi. Shulardan kelib chiqqan holda, ayolning oilani moddiy ta'minlashdan ozod qilingani va uning nafaqasi bolaligidan to'vafotigacha boshqalar (otona, vasiy yoki homiy, er) ga yuklatilgani sababli meros masalasida uning ulushi erkaknikidan kam bo'lgan. Ikkinchidan, islom huquqida ayolning bitta erkakka nikohlanishi mumkinligi uqitirilgan ekan, ayni vaqtda erkaklarga nisbatan poligamiyaga ruxsat beriladi. Shu o'rinda maqolada poligamiya masalasini ham

ulamolarining tahliliy nazariyalariga tayanish lozim bo'ladi. E'tibor bering: «Niso» surasining uchinchi oyatida to'rt nafargacha uylanishga ruxsat berila turib, darhol orqasidan «agar ular o'rtasida adolat va tenglikni barqaror qila olmaslikdan qo'rqsangiz, faqat bitta xotin bilan kifoyalangan», deyiladi. Ushbu suraning 129-oyatida esa Alloh taolo: «Har qancha urinsangizlar ham xotinlaringiz o'rtasida adolat qilishga qodir bo'lmaysizlar», deya guvohlik beradi. Demak, shariatda ko'pxotinlikka hech qanday shart-sharoitsiz,

shart-sharoitlari doirasidagi normalari (masalan, ayollar huquqlari sohasidagi ba'zi cheklashlar)ga mutlaqo o'zgarmas normalar sifatida qarash to'g'ri emas. Qayd etish joizki, islom ayollarga rahm-shafqat, mehr ko'rsatish bilan birga ularning maqomini ham ko'tardi va baxtli hayot kechirishlari uchun yangi normalarni joriy etdi. Ularning bajarilishi esa Qur'on oyatlari va Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislarini bilan mustahkamlab qo'yildi. Islom huquqining ilohiy manbalarida ayollarga bog'liq masalalarning talqin etilishi haqida gap ketganda Qur'oni karim islom huquqining asosiy manbai sifatida yo'naltiruvchi vazifani bajarганиni aytish joiz. Xususan, muqaddas Qur'oni karimda ayol masalasiga oid 309 ta oyat mavjud bo'lib, ulardan 161 tasi Makkada, 148 tasi esa Madinada nozil bo'lgan. Makkada nozil bo'lgan oyatlarni o'rganish jarayonida shunday xulosaga kelish mumkin, u davrda asosan jamiyatda ayollarga nisbatan shakllanib qolgan noto'g'ri munosabat, jumladan, salbiy yondashuvni yo'qotishga birlamchi e'tibor qaratilgan. Birinchidan, ayolning inson sifatidagi qadri baholashga asosiy urg'u berilgan. Masalan, arablarda yangi tug'ilgan qizlardan or qilib, ularni tiriklayin ko'mish odati bo'lgan. Bundan tashqari, farzandlarni shu jumladan qizlarni kambag'allikdan qo'rqib o'ldirishgan. Qur'onda ushbu odatlar keskin tanqid ostiga olinib, qoralangan. Ikkinchidan, ayolni xotin sifatida kamsitish, uni tahqirlash va unga buyumdek munosabatda bo'lish o'rniga, aksincha, unga nisbatan mehr-shafqat bilan munosabatda bo'lish keng targ'ib qilingan. Uchinchidan, ona sifatida har qanday ayolga nisbatan hurmat-etirof ko'rsatish ta'minlangan. Bu Qur'onda ayol masalasi va huquqlariga oid qarashlarning umumlashtirilgan ko'rinishi bo'lib, bunday yondashuvda boshqa manbalarda yanada mustahkamlangan. Ma'lumki, Qur'oni karimda jumalarni qismlarga ajratib ta'riflash an'anaviy bo'lmagan. Ko'p tillarda bo'lganidek, arab tilida ham erkak kishilar va xotin-qizlarga murojaat qilganda soddagina qilib xonimlar va janoblarga deb qo'ya qo'lishadi. Ammo Qur'oni karim oyatlari ham bir jins vakilining tengligi, Alloh taolo huzurida hurmatga

”

islom ayol organizmining tabiiy vazifalari bilan bog'liq fiziologik va ruhiy o'ziga xosliklarini nazarda tutib, uning zimmasidagi vazifalarini yengillashiradi. Shu bilan birga, ayollarning zaifligi bois oilani nafaqa bilan ta'minlash majburiyati erkakka yuklatiladi.


tarixiy, ham bugun musulmon mamlakatlarida amalda bo'lgan oila qonunchiligidagi holatlar nuqtayi nazaridan o'rgandik. Garchi bu masala ko'p bora tanqidga uchragan bo'lsa-da, fikrimizcha, bu qarash davr nuqtayi nazaridan kelib chiqqan inobatga olish lozim. Yana bir gap: poligamiya islom olib kelgan norma emasligini alohida ta'kidlash joiz. Garchi, bu munosabat islom ta'limoti tufayli yumshatilgan bo'lsa ham, Sharqda xos mentalitet ta'siri hamda ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va hatto harbiy omillar tufayli o'sha davr uchun bunga ruxsat etilgan. Ammo avval boshdanoq mintaqada mavjud bo'lgan ko'pxotinlik aqidasi qaysidir ma'noda chegaralab qo'yildi. Eng asosiy jihati poligamiya bu – (muboh) majburiy bo'lgan (farz) ko'rsatma emasligini ham aytish joiz. Shuningdek, uning eng og'ir sharti sifatida Qur'oni karimda adolatga qat'iy amal qilish shart qilib qo'yildi. Ammo inson zoti adolatni to'la ta'minlay olmasligi shariat manbalarining o'zida ham qat'iy ta'kidlanganini unutmashlik lozim. Aytish joizki, Qur'oni karimda erkaklarga to'rttagacha uylanishga ruxsat berilgan degan qarash ushbu masalaning asl mohiyatini tushuntirishda o'ziga xos muammo borligi sabab yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham ushbu masalani sharhlashda

to'g'ridan-to'g'ri ruxsat berilmagan. Zotan, ko'pxotinlik shartlarini bajarish g'oyat og'ir masala sanalgan. Demak, Qur'oni karimning ushbu masalaga oid oyati islomgacha bo'lgan davrda keng tarqalgan ko'pxotinlikni tartibga solish uchun nozil qilingani ayon bo'ladi. Ayni paytda rasmiy nikohi bo'la turib, ba'zi bir kishilarning nafs nuqtayi nazaridan birinchi, ikkinchi yoki uchinchi xotonga uylanayotgani afsuslanarli holat, albatta. Zero, oila qonunchiligida ham bu masala qat'iy taqiqlangan bo'lib, hatto, buning uchun jazo choralarini belgilangan. Insoniyat tarixidan har qanday shaxsning faqat yakka nikohdagina baxtli bo'lishi mumkinligiga istagancha misollar keltirish mumkin. Yakka nikohlilik tamoyili yuksak axloqiy qoidalardan kelib chiqmog'i lozim. Bunday qoida jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi nikoh oila munosabatlari talablariga ham javob beradi. Ushbu qoidaning buzilishi nikohni haqiqiy emas deb topishdan tashqari, qonunni buzgan shaxslarni jinoyi javobgarlikka tortishga ham asos bo'ladi. Islom huquqida ayol huquqlari borasida mazkur masalalar ko'p tortishuvlar mavzusi bo'lsa ham, e'tirof etish kerakki, islom ta'limoti ayollarga munosabat borasida o'ziga xos «inqilob» yasagan. Shuning uchun ham islom huquqining o'z tarixiy



## 18 MARTA MAG'LUB BO'LGAN

## YETAKCHI

YOXUD NOTIQLARNING  
HIKMATLARI INSONIYATNI  
QANDAY JALB ETGAN?

Tarixdan ma'lumki, barcha buyuk sarkardalar, qahramonlar yaxshi notiq bo'lishgan. Ular auditoriyada o'zini tuta olishi va so'zlash mahorati bilan o'z fikr-g'oyalari atrofdagilarga ta'sirli qilib yetkazib, ularni yagona maqsad sari yetaklagan. Masalan, Jaloliddin Rumiy, Husayn Voiz Koshifiy, Sezar, Napoleon, Robesper, Cherrill kabi tarixiy siymolar ritorik mahorati bilan xalqini birlashtirib, yagona maqsad sari yo'naltira olgan bo'lsa, Ilon Mask, Stiv Jobs, Angela Merkel, Boris Jonson, Nik Vuychich kabi zamondoshlarimiz o'z faoliyatlarida notiqlik mahoratlarini mahirlik bilan qo'llay olganlar.

## «TILINGDAN OLDIN QALBINGNI TARBIYA QIL...»

Aytish joizki, Sharq va G'arb so'z san'atiga katta ta'sir o'tkazgan jahon adabiyotining muazzam siymolaridan biri – Jaloliddin Rumiy hazratlarini Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Abdulqodir Bedil o'zlariga ustoz deb bilishgan. Mavlononing «Masnaviyi ma'naviy» asari inson ma'naviy hayotining qomusi sifatida nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham chuqur o'rganilgan. Necha asr va zamonlar o'tsa hamki, Rumiy hazratlarining adabiy meroslari, ularning hikmatli so'zlari ta'lim-tarbiyani shakllantirishdagi ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Birgina: «Insonni otash emas, o'z g'afflati yoqar. Barchadagi kamchilikni ko'raru, ammo o'ziga ko'rdek boqar. Nimaga qanday boqsang, u ham senga shunday boqar» iborasi har bir davrga xos desak yanglishmaymiz. Shuningdek, necha asr va zamonlar o'tsa hamki, ularning hikmatli so'zlari ta'lim-tarbiyani shakllantirishda katta ta'sirga ega:

- Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil. Chunki so'z qalbdan kelib, tildan chiqadi.
- Ming yil o'qisamu, mendan «nimani bilding», deb so'rasalar, «haddimni bildim» deyman».

## 18 MARTA MAG'LUB BO'LGAN YETAKCHI

Butun dunyoda kuchli notiq sifatida tan olingan Amerikaning 16-prezidenti Avraam Linkolnning «Men sekin yuraman, hech qachon ortga qaytmayman», degan iborasi bugun ham inglizlar orasidagi eng mashhur iboralardan. Linkoln maktabda bir yil ta'lim olgan bo'lsa ham, o'zi mustaqil holda ko'p kitoblarni o'qigan, shaxsini rivojlantirish bilan shug'ullangan

va odamlar bilan osongina bahsga kirisha olgan. Shu orqali Avraam Linkoln o'zidagi ishonchsizlik, tortinchoqlik va o'ziga past baho berish «xislatlarini yo'qotishga tarbiyalashga erishgan. U siyosiy faoliyatini 30 yoshida boshlab, 18 marta saylovlarda mag'lub bo'lgan bo'lsa-da, uning «bo'lingan uy» haqidagi nutqi juda mashhur bo'ladi va butun AQSH bo'ylab tarqaladi. Bu nutqida u bir mamlakatda «yarim qullik va yarim erkinlik» holati davom etishi mumkin emasligini asoslab beradi. Qullikka qarshi yagona nomzod sifatida 1861-yil Linkoln AQSHning o'n oltinchi prezidentiga aylanadi. Balki uning yutuqlariga o'zi aytgan hikmat turki bergandir...

## MAHALLIY MATBUOT BU KUNNI «TARIXIY KUN» DEB YOZIB QO'YDI

O'tgan asrning 20-yillaridan so'ng zamonaviy ta'lim-tarbiyani rivojlantirishda beqiyos hissa qo'shgan jaded adabiyoti vakillaridan biri – Abdulla Avloniy xalqimiz hayotida yuz bergan eng katta baxtsizlik – o'z mustaqilligini yo'qotishi voqealarini loqayd kuzatolmagan, uning fojiali oqibatlarini chuqur idrok etishga va istiqloq uchun kurashga chaqirishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Toshkent shahrining o'sha vaqtlardagi eng katta teatr-konsert binosi – ikki ming kishini sig'ira oladigan «Kolzey»da ma'rifatparvar, jurnalist, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniyning «Turon» teatr truppassi o'z faoliyatini «Padarkush» bilan boshladi. Spektakl boshlanishi oldidan O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yo'l boshchisi Munavvarqori Abdurashidxonov teatrnig jamiyat hayotidagi o'rni haqida nutq so'zladi. Mahalliy matbuot bu kunni

«tarixiy kun» deb yozdi. Jadidlarning g'oyalari aholining turli qatlamlari tomonidan qizg'in kutib olindi. Abdulla Avloniy «Vatan sening noming muqaddasdindir. Kimki buni bilmas, uning aqli pastdir» kabi hikmatli so'zlari, shuningdek, amaliy harakatlari bilan millat ravnaqiga katta ta'sir etgan ma'rifatparvar ijodkordir.

## HIS TUYG'ULARINI YASHIRMAGAN ARBOB

Buyuk Britaniyalik siyosiy arbob Uinston Cherrillning aytishicha, notiqlik noyob iste'doddur. Uning nutqida antik davrning ba'zi notiqari singari nuqsoni bo'lgan. Ammo bu kamchilik uning mahoratli ma'ruzachi bo'lishiga to'sqinlik qilmadi. Cherrill o'z nutqida his-tuyg'ularni ko'rsatishdan qo'rqmadi, u qisqa va sodda so'zlarni ishlatdi. Bu esa uni odamlarga yaqinlashtirdi. U hazil qudratini tushunib, undan o'z nutqida mohirona foydalanar, boshqalarga yaxshi kayfiyat ulashardi.

«Hech qachon yengilmaslik! Hech qachon taslim bo'lmaslik» – Uinston ushbu so'zlarining kuchini o'zi yaxshi bilar edi. Chunki avval sog'lig'i, keyin konservatorlar unga qo'ygan siyosiy bloklar sabab o'z maqsadlaridan kechishga majbur bo'lgan. Biroq, muammolar uning bosh vazir bo'lishiga yetarlicha to'sqinlik qilolmadi.

## «HINDISTONNI TARK ETING...»

1942-yil 8-avgustda Hindiston milliy ozodlik yo'l boshchisi Mahatma Gandi tomonidan qilingan «...Hindistonni tark eting...» degan nutq Hindiston mustaqilligi uchun qat'iy chaqiriq bo'lgan, Banorasdagi Hind universitetining ochilish marosimida so'zlagan nutqida

Gandi hindlar o'z taqdiri va o'z yurtining egasi bo'lishi kerak, degan g'oyani ilgari surgan.

## UNI ESHITMASLIK MUMKIN EMAS EDI...

Kubaning sobiq prezidenti Fidel Kastro nutq boshlaganida hech kim auditoriyani tark eta olmas edi. Prezidentning ma'ruzasi ko'p hollarda 6-7 soat davom etar, qancha uzoq bo'lsa ham, odamlar uning so'zlarini zavq bilan tinglar edi. Fidel Kastro nutqida badiiy, yorqin ifodalarni qo'llagan. Uning nutqida ifodali pauzalar va cheksiz o'ziga ishonch bor edi. U yaxshi nutq millionlab odamlarning fikrlarini shakllantirish qudratiga ega ekanligini bilgan va undan foydalana olgan. Uning «Qachon qaroqchilik falsafasi yo'qolsa, urush falsafasi ham yo'qoladi» mavzudagi nutqi 4 soat 29 daqiq davom etgan va Ginnesning rekordlar kitobiga kirgan. Bu BMT devorlari ichida aytilgan eng uzun nutq edi.

## BIZNESMEN NOTIQNING MUVAFFAQIYATI

Stiv Jobs o'z faoliyatida notiqlik biznes sohasida ham muhim ekanligini isbotladi. XXI asrning eng yirik kompaniyalaridan biri – «Apple» asoschisi Stiv Jobs muvaffaqiyatli taqdimotchilik mahorati bilan e'tirof etilgan. Jobs odamlarni brendga ehtiyoj borligiga ishonch berdi. Ishonchli va tiniq so'zlash uslubi savdo sohasidagi asosiy omad «kaliti» ekanligini ko'rsata oldi. U tinglovchilar bilan muloqot boshlash maqsadida o'z nutqida ataylab bir qancha savollarni javobsiz qoldirardi. Stiv Jobs ma'ruzalarida sahnada aylanib, hazillashib, tomoshabinlardan savollar kutish usulidan foydalanib, bahs-

munozaralar bilan ommaning savdoga qo'yilgan mahsulotga qiziqishini shakllantirar edi. Uning so'zlarida nafaqat notiqlik mahorati, balki chuqur ma'no va mohiyat bor edi. Shu bilan birga, uning ma'ruzalaridagi fikrlari insonlar hayoti va ish faoliyatida katta ilhom va undov manbai bo'lib kelmoqda:

- Ishingiz hayotingizning katta qismini tashkil etadi, shuning uchun ham to'liq mamnun bo'lishingizning yagona yo'li o'zingiz eng yaxshi deb bilgan kasb bilan shug'ullanishdir.
- Ko'pchilik odamlar tajribalarining xilma-xilligi bilan maqtana olmaydi. Ularning hayot tajribalarida to'g'ri harakatlarni o'zaro bog'laydigan, quradigan koordinatalar yetishmaydi.
- Ko'pchilik muammoning ko'p qirralarini ko'rmaydi. Shuning uchun uning yechimi juda oddiy. Insonning madaniyati qancha yuqori bo'lsa, bu unga insoniyat tajribasidan kengroq foydalanish imkonini beradi.

## TEXNOKRATLAR E'TIBORIDAGI SHAXS

Stiv Jobs vafotidan keyin Ilon Maskning taqdimotlari butun dunyo bo'ylab texnokratlarning e'tiboriga tushdi. Tadbirkorlik salohiyati bilan birga o'ziga xos notiqlik mahorati asosida Ilon Mask sun'iy intellekt, ko'inot ilmi va o'ta tezkor transportlar atamasini aynan o'z nomi bilan bog'lashga muvaffaq bo'ldi. Natijada insoniyat bu yo'nalishdagi taraqqiyotni aynan Ilon Mask muvaffaqiyatlarida ko'rmoqdalar. Uning quyidagi so'zlarida vaziyatga o'ziga xoslik bilan munosabatda bo'lish va faollikni inson avvalo o'zidan talab etishini tushunish mumkin:

- Men ko'p narsaning qanday sodir bo'lishini kuzatishim mumkin yoki uning bir qismi bo'lishim ham mumkin.

## BAXT BU...

Dunyoga mashhur yozuvchi va faylasuf Lev Tolstoyning ijodiy qarashlari boshqa yozuvchilarnikidan butunlay farq qiladi. Uning ijodiy merosi yetuk asarlar, kundalik bitiklar va maktublardan iborat. Mashhur «Urush va tinchlik», «Anna Karenina» asarlari dunyo bo'ylab alohida mavqega ega. L.Tolstoy o'z asarlari va yozma nutq namunalari insonlar ruhiyatidagi ziddiyatlarni haqqoniy tasvirlabgina qolmay, ularning barcha zamonlarga xos muammo va haqiqatlarini notiqlik bilan ochib bergan. Uning insoniyatni barkamollikka intilishdagi ushbu undovlari o'ziga xos:

- O'z vazifangizni bajarishga intiling, shunda darhol o'z qadringizni bilib olasiz.
- Men hayotda faqat ikkita haqiqiy baxtsizlikni bilaman: pushaymonlik va kasallik.

Fotima MUBORAKOVA,  
O'ZA

# XALQARO HAYOT



Mutaxassislar fikricha, yangi raketa Eron aerokosmik kuchlarining so'nggi strategik yutug'idir.

Mahalliy OAVning xabar berishicha, yangi o'q-dorilar barcha raketalar qarshi mudofaa tizimlaridan o'tib, ularni yo'q qilishga qodir. Raketaning uchish masofasi 1,4 ming kilometr, tezligi esa 12-13 Mach'ga yetadi. Raketa yuqori aniqlik, yaxshi manevar qobiliyati bilan ajralib turadi, u radar tizimlariga ko'rinmas bo'lib qolishi va atmosferada ham, undan tashqarida ham manevar qilish qobiliyatiga ega. Ushbu turdagi raketalar faqatgina AQSH, Rossiya va Xitoy davlatlari tomonidan ishlab chiqarilgan va qo'llanilgan eng so'nggi quroldir.

MAGATE bosh direktori Rafayel Grossi: Zaporozhe AYESning sovutish suv omboridagi suv sathi jiddiy darajada pasaydi.

Yevropa Kengashi rahbari Sharl Mishel Kaxovskaya GESiga uyushtirilgan hujumdan hayratda ekanini aytib, bunda Rossiyaning aybladi va voqeani "harbiy jinoyat" deb atadi.

Germaniya kansleri Olaf Shols Kaxovskaya GESidagi falokatni mojaroning "yangi jihati" deya baholadi va Berlin Kiyevga kerak bo'lganda yordam berishda davom etishini aytdi.

Kreml matbuot kotibi Dmitriy Peskov esa Rossiya Kaxovskaya GESidagi portlash bilan bog'liq ayblovlarni qat'iy rad etib, buning uchun faqat Ukraina rasmiylari javobgarligini ta'kidladi.

U Kaxovskaya GESining yo'q qilinishini «Kiyevning qasddan sabotaji, Ukraina qo'shinlarining hujumi paytida muvaffaqiyat qozonmagani bilan bog'liq», – deb atadi.

Ukraina prezidenti devoni rahbari maslahatchisi Mixail Podolyak esa aksincha, Ukraina razvedka ma'lumotlariga taxanib, Rossiya Qurolli kuchlarining 205-motoo'qchilar brigadasi Kaxovka GESini portlatganini da'vo qilmoqda.

– GESdagi falokatdan keyin Kaxovka suv omborining to'liq qurishi xavfli moddalar bo'lgan tub cho'kindilarni fosh qiladi, – dedi Moskva davlat universiteti dotsenti, taniqli ekolog Aleksey Medvedkov RIA Novostiga bergan intervyusida.

«Eng yomoni, suv ombori to'liq quriganidan keyin zaharli konlar va changlar hosil bo'ladi. Bu haqiqiy kimyoviy bomba», deya qo'shimcha qildi olim.

Mutaxassisning tushuntirishicha, deyarli 70 yil davomida oqava suvlar bilan birga oqib kelgan ifloslantiruvchi moddalar suv ombori tubida to'plangan. Bular og'ir metallar, neft mahsulotlari, pestitsidlar, radionuklidlar va boshqa moddalar bo'lishi mumkin.



Dr  
Neura link


## NEURALINK/KOMPANIYASI 5 MLRD. DOLLARGA BAHOLANDI

Miya chiplari ishlab chiqaruvchi Neuralink kompaniyasining qiymati 5 milliard dollarga yetgani xabar qilinmoqda. Reutersning yozishicha, Ilon Mask asos solgan kompaniya ikki yil avval startup holatida 2 milliard dollarga baholangan edi. Biroq AQSH hukumati ushbu kompaniya texnologiyasini odamlarda sinovdan o'tkazishni ma'qullaganini e'lon qilgunga qadar bu mablag' bir nechta shaxsiy tranzaksiyalarni tufayli o'sdi.

E'tibor bering: odamlar miyasiga joylashtirish uchun chiplar ishlab chiqaradigan kompaniya qiymati ikki yilda 2 barobardan ziyodga oshgan...

–G'arb Markaziy Osiyoga gumanitar va harbiy yo'l bilan kirib borishga harakat qilmoqda, – dedi Rossiya Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov.

–Bugun biz G'arbnng Markaziy Osiyoga, jumladan, gumanitar va harbiy sohalarga zo'rlik bilan kirib borishga qaratilgan qasddan urinishlariga guvoh bo'lyapmiz, – dedi Rossiya diplomatiyasi rahbari.



## TASHQI ISHLAR VAZIRI ENDI PREZIDENT

O'tgan payshanba kuni Latviya Seymi (parlamenti) amaldagi tashqi ishlar vaziri Edgars Rinkevichsni mamlakat Prezidenti etib sayladi.

Parlament matbuot xizmati xabarida aytilishicha, saylovning uchinchi bosqichida 52 deputat Rinkevichs nomzodini qo'llab-quvvatlagan, 35 deputat esa nomzodga qarshi ovoz bergan.

– Latviya Respublikasi Prezidentligiga saylanganim men uchun katta sharaf, endi xalqimga sidqidildan xizmat qilish uchun bor kuch-ayratimni ishga solaman, – deb yozdi ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida, yangi davlat rahbari. – Parlament a'zolariga esa bildirgan ishonchlar uchun minnatdorlik bildiraman. Qayd etilishicha, Latviya Prezidenti Seymning mutlaq ko'pchilik – 100 dan kamida 51 ta ovozi bilan to'rt yilga saylanadi. 49 yoshli Rinkevichs 2011-yildan buyon TIVni boshqarib kelayotgan edi.



**Bahrom IRZAYEV,**  
Qatag'on qurbonlari  
xotirasi muzeyi katta  
ilmiy xodimi

Yillar o'tsada, ayrim muammolarning shakli shamoyili, topilgan yechimi o'zgarishi mumkin, ammo jamiyatda, insonlar hayotiga ta'siri, dolzarbligi o'zgar olmaydi. Birgina misol, bundan roppa-rosa yuz yil avval oddiy bir talabani qaytib yozganlari, Vatan va millat taraqqiyoti yo'lidagi xavotirlari bugungi kunga ham begona emas. Ayniqsa, hozirgi talabalarimiz orasidagi neojadidlarimizga taalluqli gaplar, muhim tavsiyalar bor. 1925 - 31-yillar Geydelberg va Berlin universitetlari kimyo fakulterida o'qib qaytgan vatandoshimiz Sattor Jabbor 1924-yil «Turkiston» gazetasida «Ertoy» imzosi bilan chop etgan maqolasida biz bilmagan tarixdan hikoya qilgan. Quyida ana shu maqola matni bilan tanishishingiz, har ikki davrni solishtirib, xulosa qilishingiz mumkin.



## O'RTA OSIYOLIK TALABALARNING GERMANIYADAGI YILI

Chet ellarga minglab, o'n minglab istudentlar yuborg'on mamlakatlar qarshisida Buyuk Turkiston (O'rta Osiyo) jim turmadi. O'rta Ovropo'g'a birinchi martaba bo'lsa ham o'ziga yarasha o'quvchilar yubordi. Turkistondog'i o'zgarishlarimiz ichida o'zimizni dunyoga ko'rsatilib katta bir ish qildik: Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon va Germaniyaga istudent va o'quvchilar yubordiq.

O'rta Ovrupoda osiyoliqlar ichida kichkinagina bo'lub ko'ringan bir to'da Turkiston yoshlari Germaniya maktablariga kirib o'rtnashib, o'qishga boshlag'onliqlariga tappa-taq bir yil to'ldi. Biz O'rta Ovrupoda o'qub turg'on bir to'da o'quvchilarimizning ahvollaridan yozib. Vatandoshlarimizga tonitmoqchi bo'ldiq. Biz 22-yilning so'ng'i oylarida Germaniyaga kelgach, avvaldan tayyorlig'imiz bo'lmagan uchun til bilmas edik. Buyuk Turkistonni talab, yondirib, ezib kelgan rus monarxistlari, Petr velikiy Ovropo'g'a yuborish uchun talaba topla o'qim'on vaqtlarini eslatirgan olmasdan «sortal Ovropo'g'a nima qilodir?» degan istehzolar bilan matbuotlarida (Berlinda chiqdirdig'on «Rus» gazetasida) qichqirishib o'tgan edilar. U qorni katta janoblarni bizni Ovropo'g'a madaniyatiga munosib ko'rmagan edilar!

Rus millatchilarining bu sovuq va qo'pol qaroshlariga qarshi Germanlar tomonidan yaxshi kutilib olindi. Matbuot «Turkiston uyg'ondi, uyg'onsun!» kabi undovlar bilan qizg'in maqolalar yozib o'tdi. Germaniyaga yangigina kelganimizda ko'p millat muxbirlari biz bilan ko'rishib ham ketdilar. Mana bu holda istiqbolda yurtimizning qanday rol o'ynag'usini ko'rsatsa kerak.

Har qanday nemis bizni oilasiga qo'shub olish uchun eshiklarini ochib qo'ydi. Oddiy muallimdan boshlab do'xturi, professori til o'rganishimiz uchun qo'ldan kelgan yordamini ayamadi. Germanlar dunyoni sevganlari kabi Turkistong'a ham juda qiziqqonlardan ekanlar. Ko'zimiz bilan ko'rganimiz uchun bu yerda ochiq aytishimiz kerakki ular mamlakatimizni, tariximizni, istiqbolimizni bir turkistonliqdan ortiq biladilar, toniydilar. Yurtimiz to'g'risida biz uchun eng muhim bo'lg'on kitoblar yozib, boshqa ellardan ham tarjima qilg'onlar.

Oz zamon o'tgach tilni o'rganib maktab darslarini tinglashga loyiq bo'lg'onimizdan so'ng har kim o'z yo'lini tutib oldi. Keyin 23 inchi yil semistrasidan o'qushga boshladik. Istudent va o'quvchilarimiz o'z daraja va istaklariga qarab tubandagicha bo'lindilar: 1. Istudentlar 2. Gimnazistlar 3. O'rta sanoat maktablariga kiruvchilar

1. Turkiston va Turkiyada e'dodiyini bitirib kelgan va dorulfununda o'qug'on istudentlarimizdan ba'zilarining shahodatnomalari Germaniya hukumati

tomonidan tonilib, istagan oliy maktablariga imtihonsiz qabul qilindilar. Qog'ozlari o'rung'a sanolmag'onlar esa eshitkuvchi bo'lib (abituriyent) o'rta maktab imtihoni berganlaridan so'ng haqiqiy talabalikka erishadilar, erishibda kelurlar. Bu kabi ishlar ko'pincha Berlin, Shorlutingburg' Oliy texnika maktabiga kirguvchilarning boshlariga tushdi. Shuning bilan barcha o'quvchilarimizning maktabga o'rtnashib olish dardi bitib ketdi. Germaniyada O'rta Osiyo va O'rta Osiyo hisobidog'i istudentlar tubandagicha: Oliy texnika maktabida Bilol kabi yigitlarimiz maktablarida eng muhim sinoshlardan bo'lg'on birinchi imtihon Vorigezmenlarini va Ahmadjon Ibrohimni Oliy texnika maktabi tomonidan talab qilingan imtihonni yaxshi darajalar bilan bitirib qutildilar. Bilol va Murodiy o'rtoqlar bir yildan so'ng maktablarini bitirsalar kerak. Ahmadjon katta imtihong'a tayyorlanib turodir. Boshqa istudentlarimiz ham maktablaridagi imtihonlarini berishga tayyorlanib turibdurlar. Dorulfunun professorlari turkistonliq istudentlaridan xursanddilar.

2. O'rta Ovrupodog'i turkistonliqlar ichida ko'pchilik tashkil qilg'onlar gimnaziya va real gimnaziya o'quvchilarimizdir. Har millat va madaniyatning tub bulog'i bo'lg'on e'dodiy maktablar Germaniyada mukammal yo'sunli rejaga olinishi barobarida o'zicha bir dunyodir. Bu xayriyatlik dunyoda kelgusiga tayyorlanib turg'on germon yoshlari orasida bizning o'quvchilarimiz ham yetishib kelurlar. O'quvchilarimiz tulli gimnaziyalarning boshlang'ich bo'limidan tortib to so'ng'i prima sinfigacha yoyilg'ondirlar. Primadagi o'quvchilarimiz uchun maktab mudirlari imtihon chog'ida tillar to'g'risida o'z bolalari kabi so'ramasliqqa va da berdilar. Yana bizlar uchun bir unutilmas yaxshilik qildilarki, turkhamizni Ovrupo tillari qatoriga o'qoshdilar. O'rta maktab imtihonlarida fransuz yoki inglizcha o'rinda o'z ona tilimizdan sinosh beramiz. Germaniyadagi Turkiston o'quvchilari orasida birinchi gal yaxshi sinoshlar bilan Berlin ober (yuqori) riyol maktabini tugatgan Solih Muhammad va primaga tayyorlang'on Bahovuddin Amin ham Sattor Jabbor kabi o'rtoqlar chiqdi. Oramizda Maryamxon, Xayriniso, Saidaxon o'lig'ish uchun mamlakatimizdagi to'siqlarga qarshi Ovropo'g'a otulg'on fidokor qizlarimiz ham bor. Ularning o'qishlari yaxshi. Biroq, xivalik Maryamxon moddiy tomondan yaxshi ta'min qilinmag'oni uchun yo'llarida ko'p chatoqliqlar ko'radir. Chindan hayot xotuni va Turkistonda

qolg'on opa-singillarining istiqboli uchun hech kim ko'rsatmas qahramonlik qilib kelgan qiymatlik qizimizga Xorazm Jumhuriyatining shunday sovuqonliq bilan qarashga Turkiston yoshlig'i taassuflar etmay turolmaydir. Buxoro ta'minotida totor qizlaridan Ruqiya va Gulsum opalar Derezden qizlar gimnaziyasidadir. Yosh o'rtoqlarimiz (Kuslin gimnaziyasida) birga tururlar. O'z tillarini yo'qotib yubormasliqlari uchun yonlarida turkcha muallimlarida bor. Ishlarida ruhlarida yangiliklar ko'ringan uchun gimnazistlarimizdan umid ko'pdir. Ular o'rta maktabni muntazam bitirib Turkiston istudentlari yonig'a kirgusilar. Istudentlarimiz ular orasiga borub Turkiston to'g'risida leksiya o'qub turish niyatidalar.

3. Ovrupo Amriqo bilan yurtimizni solishdirsoq Turkiston tomatxonadan iboratdir. Kunbotariqlar tabiatni o'yunchoq qilg'onlar, biz esak tabiatga qo'g'uchog'! Tilimiz oxirat dardi bilan ovvora, ya'ni tirikligimizdan o'limimiz hokim; Ovrupoliqlar esa istiqbol va yashash uchun hozirlanmoqdalar. Mana biz turkistonliqlarning yangi dunyodan ajrolib qolishimiz, ochibroq aytganda ajrotqon narsa moshina davridan uzog'ga tushganimizdir. Shuni ko'zda tutib ko'p o'quvchilar moshina, to'qimachilik, ko'nchilik, boqcha, ziroat va matbaachilik kabi o'rta sanoat maktablariga kirdilar. Germaniya o'rta sanoat maktablariga kirgan o'quvchilardan bir to'dasi 25 inchi yilda maktablarini bitirsa kerak. Ularning sinoi quyida ko'rsatganimizcha: O'rta ziroat maktabida 6 nafar, moshina va fabrik texnikumida 5 nafar, elektrik texnikumida 1 nafar, matbaa texnikumida 2 nafar, ko'nchilikda 2 o'quvchi. Barchasi 16 o'quvchi.

Turkiston talaba birligi Ezilmak istamaganlarning eng yaxshi quroli uning yoshlig'idir. Bu kun Ovrupo, Amriqo hayoti tarixida birinchi o'rta olg'on va buyuk haq hurmatga ega bo'lg'onlar o'quvchi yoshlar ekanligini ko'ramiz. Uyuqdan yangi turgan Turkiston yoshlari istudentlik yo'lig'a endigina ayog qo'yib kelsalarda, yot ellarda bir birlaridan daraksiz bo'lib ketmasliklarini ko'zda tutib va kelgusida «Umum Turkiston talaba birligi» tuzish niyati bilan ikkinchi yil bo'ldi, Germaniyada «Turkiston talaba jamiyati» qurulib ishga boshladi. Jamiyat Germaniya hukumati tomonidan rasmiy tasdiq qilinib istudent dunyosiga o'zini tonitish bilan bu kun o'rta Ovrupodag'i turli millatlar talaba birligi surasiga qo'shildi. Tilagi otidan ochilib ko'ringan yosh jamiyatimiz tom talaba hayotiga oid keng tuzuklarga egadir. Uning butun tuzuklarini bu yerda sig'dirish mumkin bo'lmag'onidan ularidan ba'zilarini qisqacha yozib o'tishni o'rta bilimiz:

- 1) Jamiyat butun turkistonlilarni (o'zbek, qozoq, turkman) o'z ichiga olur va Turkistonning maorifi va madaniyati uchun yo'llar ochar;
  - 2) Ovrupo ilm-irfonini Turkistong'a tonitmog'ga va Turkiston talabalarini Ovrupoga jalb qilmog'ga va maktablariga yerlashtirmakka tirishar; Turkiston qo'l sanoatini tadirjan bo'lsa ham fanniylashdirmakka va bu yo'l bilan Turkiston fuqarosini kapitalistlar asoratidan qutqarmoqni birinchi maqsadi deb bilan hamda Turkistonni Ovrupoga tonitmog'ga harakat etar;
  - 3) Butun talaba o'rtoqlarni har hafta to'plab o'z ixtisoslari bo'yuncha leksiya o'qutadilar. Ovrupodan olg'on ilmlarini Turkistong'a mol qilmog'ga, ya'ni Turkistong'a tadbiiq mumkin bir holga keltirmakka tirishar;
  - 4) Turkiston va Turkiston tashqarisidagi butun turkistonli talaba o'rtoqlarg'a murojaat qilib muxobara ta'sis etmakka boshlar. Talaba markazlaridan birida bir jurnal chiqarmoq bilan Turkistong'a ilmiy xizmatlar qilmog'ga ko'shish etar va boshqalar...
- Ichki-tashqi tuzuklarimizni qo'limizdan kelganicha tadbiiqdazim. Turkiston, Ozarbayjon, Rossiya Jumhuriyatlari va Turkiyadagi o'quvchi o'rtoqlar bilan aloqa boshlab tonishmoqdazim. Jamiyatning ichki ishlari yomon emas. Gali bilan o'zaro leksiya o'qushamiz. Ko'klam boshlang'andan beri Gimnastik, Sharqi, Kezish kabi to'dalarimiz yakshanba kunlari (ba'zan tonig'on olmon talaba yerliklari bilan) shahar tegrasida ekskursiyalar qiladi. Yaqin zamondan beri Turkiston Jumhuriyati va sho'rolar Rusiyasida: «talabalar Ovruponing buzuq fikrlik kishilari ta'sirida, ularni qaytarib olmoq lozim yo'qsa bir kun boshimizga balo bo'lur...» kabi bo'lmag'on so'zlar tug'ulg'onini eshitib hayron qolmoqdazim. Hammaga ma'lumki Turkiston talabalari Ovrupoga siyosat bilan aralashmoq uchun kelmadilar, ilm-hunar uchun keldilar. Germaniyaga kelganimizga ikki yil bo'ldi. Shu vaqtg'acha oramizdan bir kimsa siyosat bilan shug'ullanmadi. Talaba o'qushidan bo'shamaydur. Ammo Berlindagi Russiya sho'rolar saforati bilan juda yaqin aloqamiz bor.
- Biz Turkiston matbuotidan, essizlarki uzog'dazim. Ko'p vaqtlar so'rob yozg'onimizda gazetalar intizomsiz kelib tursada, bu kun 2 - 3 oydan oshib ketdi, to'xtadi.
- Talaba va o'quvchilar Turkiston darak va ahvollari bilan doim tonishmog'ga qiziqdirlar. «Turkiston», «Farg'ona», «Ozod Buxoro», «Oq jo'lb», «Zarafshon» va boshqa turkcha, ruscha gazet va jurnollardan muntazam yuborib turilsa, biz talabalar bundan so'ng ular bilan ishga kirishib, aloqa bog'lar edik».

O'RTAR

Agar oshiqlik' im aytsam, kuyub jonu jahon o'rtar,  
Bu ishq sirrin bayot etsam, taqi ul xonumon o'rtar.

Kishiga ishq o'tidin zarrai yetsa, bo'lur giryon,  
Bo'lub besabru betoqat, yurak-bag'ri chunon o'rtar.

Nechuk toqat qilay, do'stlar, bu dard ila bo'lub hayron,  
G'amim boshqa, alam boshqa, yuragimni fig'on o'rtar.

Meni bexonumon tinmay kuyub har dam firoqingda,  
«Nigoro!» deb oting aytsamki, shavqingdin zamon o'rtar.

Qayu til birla, ey jono, sening vasfing bayon aylay,  
Tilim lolu ko'zum giryon, so'ngaklarni nihon o'rtar.

Na qattig' kun ekan, dilbar, visolingdin judo bo'lmoq,  
Mening ohim o'tig'a bul zaminu osmon o'rtar.

Yurakda dardu g'am qat-qatki, menda qolmadi toqat,  
Agar bu zarrasin bul vaqt desam, ishq bayon O'rtar.

Bu dard ila xarob o'ldum, kelib holimni so'rmassan,  
Unum chiqsa yurakdin, bu tanu jon, ustixon o'rtar.

Bu Mashrab dardini, jonoki, hech kim boshig'a solma,  
Agar mahsharda oh ursam, bihishti jovidon o'rtar.

XOHI INON XOHI INONMA

Sensan sevarim, xohi inon, xohi inonma,  
Qondur jigaram, xohi inon, xohi inonma.

G'am shomi firoqingda kabob etti falakni  
Ohi saharim, xohi inon, xohi inonma.

Nogah sari zulfung sori bo'ldum sanga moyil,  
Ey toji sarim, xohi inon, xohi inonma.

La'ling g'amidin ko'nglum erur g'uncha kibi qon,  
Gulbargi tarim, xohi inon, xohi inonma.

Zahri g'ami hajring meni o'ldurg'ali yetti,  
Ey labshakarim, xohi inon, xohi inonma.

Mashrab, bo'lubon ko'yinga chun barqi tajalli,  
Qolmay asarim, xohi inon, xohi inonma.

DEVONA QILDI ISHQ MANI

Man kimga aytay do'stlarim, devona qildi ishq mani,  
Sadpora qildi yurakim, devona qildi ishq mani.

Tun-kechalar dod aylasam, har dam sani yod aylasam,  
Ishqingda faryod aylasam, devona qildi ishq mani.

Shomu sahar giryon bo'lay, yo'lungda sargardon bo'lay,  
Oxir sanga qurbon bo'lay, devona qildi ishq mani.

Hamdam bo'lay mayxonaga, sokin bo'lay butxonaga,  
Boshim qo'yay ostonaga, devona qildi ishq mani.

Ishq ahliga hamdam bo'lay, Haq yo'luga mahkam bo'lay,  
Dargohiga mahram bo'lay, devona qildi ishq mani.

Devonayi shaydo bo'lay, man tolibi Mavlo bo'lay,  
Xalq eliga rasvo bo'lay, devona qildi ishq mani.

Mashrabga qil lufu karam, vahdat sharobin dam-badam,  
Ey sohibi Lavhu Qalam, devona qildi ishq mani.

DARDI SIRIMNI KAVLAMA

Ey sabo, g'ambodadurmen, bistarimni kavlama,  
Chun shafaqoludaman, xokistarimni kavlama.


Har zamone Laylidin manga kitobatlar kelur,  
Senki majnun bo'lmasang, sardaftarimni kavlama.

Xonavayronlar bilur aftodalarning holini,  
Yeyki, mahram bo'lmasang, chashmi tarimni kavlama.

To kishiga dard tegmay, bo'lmadi bag'ri kabob,  
Dilda darding bo'lmasa, dardi sirimni kavlama.

Hajr toshidin zarru ofat boshig'a yetgan o'zum,  
Kishtiyyi motamadurman, langarimni kavlama.

Yeti do'zax o'rtamur aftodalarning ohidin,  
Otashi hajrida kuygan mijmarimni kavlama.



Lomakonning shahrini bu hu bila sayr ayladim,  
Jabrail, borg'il nari, bolu parimni kavlama.

Bahri rahmatga kirib, qildim vujudimni adam,  
Ma'rifatdin bexabarsan, daftarimni kavlama.

Durri daryoyi maoniy bo'ldi chun mashrab, vale  
Diydabino bo'lmasang, ko'z gavharimni kavlama.

O'ZGINAM

Ishq o'tiga o'rtanib devona bo'lgan o'zginam,  
Kuya-kuya kul bo'lub biryona bo'lgan o'zginam.

Oshiqi diydorman, ey yor, bilmassan magar,  
Mansuri Hallojdek dorga osilgan o'zginam.

Kuya-kuya kul bo'lub dunyodin o'tkan bormukin,  
Ishq yo'lida ming o'lub, ming bir tirilgan o'zginam.

Chok siyamni qilib Mahsharda aylarman fig'on,  
Ul kuni diydor deb Mahsharni buzgan o'zginam.

Ul Sirotal-mustaqim oldida barcha yig'lashur,  
Ishqni rahbar qilibon andin o'tgan o'zginam.

CHAMAN ETTIM

Dil dashtida g'am ohularig'a vatan ettim,  
G'amzang o'qi to lolalar ochti, chaman ettim.

Ishq ahli maning sori kelurg'a bu erur yo'l,  
Har yerda tarab gullari erdi vatan ettim.

Nayson kabi ko'zdin yog'adur ashki ravonim,  
Sadqangga yurak qonini la'li Yaman ettim.

Mehring qushi ko'nglim qo'lidan ajramasun deb,  
Jon rishtasi birlan oyog'idan rasan ettim.

Joning'a nigohing o'qidin gullar ochilsa,  
Sayrim'g'a ani nastaranu yosuman ettim.

Rasvolig' o'tin balki o'zing'a yoqadurman,  
Jisming'a samandar kabi o't pirahan ettim.

Mashrab, bu so'zing topdi saning bo'yi shahodat,  
Qonlig' tanima ishq libosin kafan ettim.

XANJARNI OLO KELDI

Ming sho'ri fig'on birlan, hay-hay, ne balo keldi,  
Jon qichqiradur qo'y deb, xanjarni olo keldi.

Qo'lida qilich fo'lod, qoshimg'a kelib jallod,  
Qildi mani bebunyod, tiyg'i guzaro keldi.

Ketsam bu alam birlan, yuz kohishi g'am birlan,  
Savdoyi sanam birlan, xush davri safo keldi.

Rozi bo'lavin o'lsam, jon bergu(n)cha bir ko'rsam,  
Mundog' ne balo birlan shiddati qazo keldi.

Zahmatga qazo yondosh, bo'ldi hammasi yo'ldosh,  
Ul javru jafu podosh, tiklab yuguro keldi.

Devonayi Mashrabsan, qo'rquv nega yig'larsan? –  
Oshiq kishiga o'lmoq kim, ayni shifo keldi.

TAVBANG QABUL BO'LMAS SENI

Ey ko'zinning sham'iyu ham nuri diydor ravshani,  
Odami imong'a yetmay hech vaqt bo'lmas G'ani,  
Mardumozori qilib bo'lma Xudoni dushmani,  
Osmonga yetsa boshing qilmagil movu-mani,  
To Otang rozi emas, tavbang qabul bo'lmas seni.

Kechayu kunduz agar Qur'on tilovat aylasang,  
Shabni ro'z aylab mudom taqvoyi toat aylasang,  
Misli Hotamdek bo'lib xayru saxovat aylasang,  
Ka'bayi maqsudni ming bor ziyorat aylasang,  
To Otang rozi emas, tavbang qabul bo'lmas seni.

Mashriqu Mag'ribni kezsang, yo'q bu dardingga tabib,  
Qilmag'ay andak shafolat, sayyidi nuri Habib,  
Kuydurur ul Moliki do'zax, seni oxir mujib,  
Yuz fig'onu nola qilsang, hech kishi kelmas qarib,  
To Otang rozi emas, tavbang qabul bo'lmas seni.

Dini imoning bilan ursang bu yo'lida dastu po,  
Zo'ri bozing birla etsang o'ttiz uch ming xonago,  
Osmondin tushsa Iso, qilsa haqqingga duo  
Murshiding Xizri zamon bo'lsa, bo'lolmas rahnamo,  
To Otang rozi emas, tavbang qabul bo'lmas seni.

Bo'yi rahmat anga yetmas, kimki badkirdordur,  
Go'r ani qilmas qabul, chirkin tani murdordur,  
Chun Xudo bandam demas, har kimki dil ozordur,  
Kim Padarozordur, andin Xudo bezordur,  
To Otang rozi emas, tavbang qabul bo'lmas seni.

Toating behudadur, hargiz topolmassan samar,  
Sad hazoron nekni, bir xo'yi bad barham urar,  
Ey muqqaddar domaning kuydi o'zingdin bexabar,  
Arshi a'zamin ulug'dur, bandaga amri Padar,  
To Otang rozi emas, tavbang qabul bo'lmas seni.

Hech oqil o'zini ahli kasofat aylamas,  
Bu giyohi talxni hech kim ziroat aylamas,  
Kim Padarozordur Ahmad shafolat aylamas,  
Bandayi mo'min omonatga xiyonat aylamas,  
To Otang rozi emas, tavbang qabul bo'lmas seni.

Mashrabo azmi safar qilgil neku kirdor bo'l,  
Bandalikni pesho tut, shah to sahar bedor bo'l,  
Oxiratni xayfidin qon yig'lagil hushyor bo'l,  
Bog'i rizvon istasang amri padarga yor bo'l,  
To Otang rozi emas, tavbang qabul bo'lmas seni.

**?** – Oliy ta'lim muassasasida o'qituvchi bo'lib ishlayman. Temir yo'l kassasidan navbatsiz chipta olishga haqqim bormi?

Nabijon Sattorov

– Belgilangan tartibga ko'ra, O'zbekiston Qahramonlari, «Shon-sharaf», «Sog'lom avlod uchun» ordenlari va «Shuhrat» medali sohiblari, urush qatnashchilari, Chernobil AES avariya oqibatlarini bartaraf etish ishlarida qatnashgan shaxslar, Oliy Majlis Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, IIV xodimlari hamda «Faxriy temiryo'lchi» nishoni sohiblari navbatsiz chipta olishlari mumkin.

**Davron Ahmedov,**  
huquqshunos-ekspert

**?** – Yoshim 20 da. Shaxsiy avtoulovga egaman, taksi yo'nalishida ishlamoqchiman. Qonunchilikda necha yoshdan taksi haydovchiligiga ruxsat berilgan?

Shahzod Azimov,  
Toshkent shahri

– Yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan yo'nalishli taksilarni boshqarishga haydovchilik guvohnomasida «V» ruxsat belgisi bo'lgan, 21 yoshga to'lgan, tibbiy ko'rikdan o'tgan va kamida uch yil haydovchilik stajiga ega bo'lgan shaxslarga ruxsat etiladi.

**Sardor Eshmatov,** huquqshunos

**?** – Joriy yilda IELTS sertifikatini olishga ulgurmadim. Ushbu sertifikatga ega bo'lmagan holda qaysi davlatlarning OTMga hujjat topshira olishim mumkin?

Dilnoza Safiyeva,  
Navoiy viloyati

– Xitoy, Malayziya va Singapur davlatlari OTM bakalavriat va magistratura dasturlari uchun IELTS sertifikatisiz xorijiy talabalarni qabul qiladi. Ammo ushbu mamlakatlarda o'qish uchun oldin til o'rganish kurslarida o'qish lozim bo'ladi.

**Shahnoza Rajabova,**  
Konsalting markazi xodimi



**?** – Gaz hisoblagichimning qiyoslash muddati tugamogda, uni yechish uchun qayerga murojaat qilishim kerak?

Zamonjon Shodiyev,  
Xorazm viloyati

– Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-avgustdagi 698-sonli qarori 2-bandiga muvofiq, hududiy gaz ta'minoti tashkilotlari – hisobga olish uskunalarini yechish va o'rnatishni, yechilgan hisobga olish uskunalarini («O'zstandart») agentligining davlat metrologiya xizmati organlarida qiyoslashdan o'tkazishga taqdim etish ishlarini amalga oshirishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, ushbu reglamentning 10-bandiga asosan talabgorlar davlat xizmatlaridan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markazlariga o'zlari kelishi yoki davlat xizmatlaridan elektron tarzda foydalanish uchun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilishlari mumkin.

**Hoshimjon Karimov,**  
ekspert

**?** – Toshkent shahrini barpo etish uchun yangi yer maydoni qo'shilishi haqida eshitdim. Shu haqda to'liq ma'lumot bersangiz?

Ravshan Dolimov,  
Yuqori Chirchiq tumani

– To'g'ri. Yangi Toshkent shahrini barpo etish maqsadida Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq va O'rta Chirchiq tumanlaridan jami 19729,4 gektar yer maydoni ajratilmoqda. Shundan 12905,7 gektar qishloq xo'jaligi yerlari va 6823,7 gektar boshqa yer toifasidagi yerlardir. Fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarini yerlari — 13185 gektar, yordamchi xo'jaliklar va issiqxonalar yerlari — 203,8 gektar, dehqon xo'jaliklari — 323,5 gektar, o'zga yerdan foydalanuvchilar — 2263,2 gektar, aholi tomorqalari — 3012,6 gektar, mahalliy hokimiyat zaxirasidagi yerlar — 60,5 gektar hamda kanallar va yo'llarga ajratilgan yerlar 680,5 gektarni tashkil etadi.

**?** – Magistratura bosqichini Toshkent axborot texnologiyalari universitetida davom ettirmoqchi edim. Mazkur universitet xalqaro reytinglarga kiritilganmi?

Tolib Abdurahmonov,  
Toshkent shahri

– Ha. Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti «THE Impact Ranking – 2023» reytingiga kiritilgan. Umumiy ko'rsatkichlar bo'yicha TATU dunyo universitetlari o'rtasida 1001+ o'rinda qayd etilgan. «Times Higher Education Impact Rankings – 2023» reytingi, bu – universitetlarning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqligini baholaydigan yagona global samaradorlik reytingi hisoblanadi.

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**  
Axborot xizmati

**?** – Davlat tashkilotida ishlaganligim sababli sirtqi shaklda ta'lim olaman. Ammo ishxonam rahbariyati o'qish davrida mehnat ta'tilini olishimni talab qilyapti. Bu vaziyatda nima qilishim mumkin?

Bezod Rahmonov,  
bank xodimi

– Mehnat kodeksining 385-moddasiga asosan, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tashkilotlarida kechki yoki sirtqi ta'lim shakli bo'yicha o'qiyotgan xodimlarga laboratoriya-imtihon sessiyalarida ishtirok etgan davr uchun o'quv ta'tillari kamida qirq kalendar kun muddatga o'rtacha ish haqi saqlangan holda har yili beriladi. Ishni o'qish bilan birga olib borayotgan xodimlarga navbatdagi mehnat ta'tillari ular o'quv ta'tillaridan foydalanganligidan qat'i nazar beriladi.

**?** – Farmasevtika sohasida tadbirkorlik bilan shug'ullanaman. Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi firmamizda tekshiruv o'tkazib, muvofiqlik sertifikatini mavjud bo'lmagan dori vositalari sotib kelganlikda ayblab, litsenziyamizni bekor qilish bo'yicha sudga beribdi. Ularning bu faoliyatini qonuniymi?

Zahro Salimova,  
Yozyovon tumani

– Avvalo, sizni bu sohada faoliyatingizni tekshirishdan oldin Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni xabardor qilish asosida tekshirishi mumkin. Bu tartibga rioya qilinmaganda sizning faoliyatingizni tekshirishlari noqonuniy. Ammo Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 185-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom 3-bobining 11-bandida belgilangan tartibda sertifikatlanishi lozim bo'lgan dori vositalari va tibbiy buyumlarini muvofiqlik sertifikatlarisiz chakana realizatsiya qilish taqiqlanishi belgilangan.

**«Yurist maslahati» rasmiy telegram kanali**

Sahifani Feruza XODJAYEVA tayyorladi.

Sport

AHMADALIYEV TOMOKI KAMEDAGA QARSHI

Professional boksning birinchi yarim yengil vazn toifasida sobiq jahon chempioni Murodjon Ahmadaliyev uchun chempionlik kamarlarini qaytarib olish imkoniyati yuzaga kelmoqda. "Matchroom" promoter kompaniyasi Ahmadaliyevning Marlon Tapalesga qarshi revansh jangini tashkil etib berishlarini so'rab yo'llagan murojaatidan keyin WVA vaziyatni o'rganib chiqib, yakuniy qarorini e'lon qildi. Unga ko'ra, Murodjon Ahmadaliyev navbatdagi jangini yaponiyalik Tomoki Kamedaga qarshi o'tkazadi. Ushbu jang eliminator, ya'ni da'vogarlik maqomida bo'ladi. Jang g'olibi Marlon Tapalesning kamarlari uchun majburiy va rasmiy da'vogarga aylanadi.



O'ZA

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING LITSIYON-SIVOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Alisher QODIROV – kengash raisi  
Akmal SAIDOV, Otiljon TOJIYEV,  
Ahror PO'LATOV, Olim O'SAROV,  
Amriddin BERDINURODOV, Otabek JIVANBOYEV,  
Akmal JUMABOYEV, Ozodbek NAZARBEKOV,  
Ibtodir MAMATXONOV, Ortigali QOZDOV,  
Ilhom ABDULLAYEV, Feruza MUHAMMEDIJANOVA,  
Ibrohim G'OFUROV, Xarshid DOSTMUSHAMMAD,  
Iroda DADALJONOVA, Sherzodjon QUDRATKO'JA,  
Minhojiddin MIRZO, Shavkat SHARIPOV,  
Nadir MUXTOROV, Shuhratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:  
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri,  
Uchtepna tumani,  
Maqsud Shayxozoda ko'chasi, 1 A-uy,  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.  
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborida bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:  
Ravshan MAHMUDOV,  
Mahbuba KARIMOVA  
NASHR UCHUN MAS'UL:  
Ma'murjon YULDOSHEV  
NAVBATCHI:  
Feruza XODJAYEVA  
DIZAYN GURUHI:  
Asilbek QUDRATOV,  
Firdavs HAMIDULLAYEV

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Korxonalar manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

Elektron pochta:  
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

ISSN 2010-7714



ISSN 2010-7714

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan. Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

A'dadi – 8 657.  
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda. Qo'g'oz bichimi: A3. Hajmi: 4 bosma tabaq.  
Buyurtma: G – 616  
Bosishga topshirish vaqti 21:00.  
Topshirildi 1:15